

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

Kimyo kafedrası

Qo'lyozma huquqida

Temirov Abdullo Toxirjon O'g'li

**“Nafas yo'llarining yallig'lanish kasalliklarida ishlatiladigan kimyoviy
birikmalar”**

**5140500 – kimyo ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr akademik darajasini olish
uchun yozilgan**

BITIRUV MALAKAVIY ISH

Ish rahbari:

k.f.d.,proff I. Abdug'ofurov

Andijon – 2016

MUNDARIJA

Soʻz boshi.....	3
Kirish.....	5
1. Asosiy qism.....	7
1.1. Nafas yoʻllari yalligʻlanishi kasalliklari haqida umumiy ma'lumot.....	7
1.2. Nafas olish organlarining yalligʻlanishi kasalliklari.....	8
2. Dori vositalarining organizmga ta'siri.....	18
2.1 Nafas aʼzolariga taʼsir koʻrsatadigan vositalar	23
2.2. Nafas yoʻllari yalligʻlanishi kasalliklarini davolashda ishlatiladigan kimyoviy dorilar.....	30
2.3. Nafas yoʻllari yalligʻlanishi kasalliklarini davolashda ishlatiladigan tabiiy dorivor moddalar.....	52
3. Xulosa.....	68
4. Foydalanilgan adabiyotlar.....	69

SO'Z BOSHI

“Iqtisodiy va siyosiy sohalaridagi barcha isloxotlarimizning pirovard maqsadi yurtimizda yashayotgan barcha fuqarolar uchun munosib hayot sharoitlarini tashkil qilib berishdan iboratdir. Aynan shuning uchun ham ma'naviy jixatdan mukammal rivojlangan insonni tarbiyalash ta'lim va maorifni yuksaltirish milliy uyg'onish g'oyasini ro'yobga chiqaradigan yangi avlodni voyaga yetkazish davlatimizning eng muhim vazifalaridan biri bo'lib qoladi.”^[1]

I.A. Karimov

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan keyin xalq xo'jaligining har javxasida, shu jumladan, ta'lim va tibbiyot sohalarida ham ko'p islohatlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida” gi qonuni, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” “ Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish Davlat dasturi” “Fuqorolar sog'lig'ni saqlash to'g'risida” gi qonunlarining qabul qilinishi ham ta'lim va tibbiyot tizimini rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi [1].

Respublikamiz Prizidenti I.A. Karimovning 1998- yil 10 noyabrdagi “O'zbekistonda sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish Davlat dastur” to'g'risidagi farmoni O'zbekistonda tibbiyotning rivojlanishida tarixiy burilish davri bo'ldi . Unda Respublikamizda o'tkazilayotgan islohatlarda sog'lom avlodni tarbiyalash uchun lozim bo'lgan tashkiliy qismlar yoritildi [2].

Shu jumladan prezidentimiz I.A. Karimov o'zining ”Barkamol-avlod orzusi” asarida “Eng avvalo, biz ta'lim tizimiga bo'lgan munosabatimizni ham tubdan o'zgartirishimiz kerak, ta'lim islohati bizni demokratik o'zgarishlar yangi jamiyat barpo etish yo'lida dadil yetaklovchi, barchamizni harakatlantiruvchi ishchi kuch bo'lmog'i zarur. Har birimizga besh barmoqday, eskicha aytganda to'qqis pulday ayon bo'lsinkim, ta'lim-tarbiya tizimini o'zgartirmasdan turib, odamlar ongini, demakki, ularning turmush tarzini ham tubdan o'zgartirish mumkun emas” degan fikrlarni aytgan[1].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2013-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma‘ruzalarida takidlab o‘tilganidek.

Kirish

Mavzuning dolzarligi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlarida qayd etilishicha dunyo aholisining 95% i shamollash kasalligi bilan kasallanadi. Bular qatorida nafas yo'llarini shamollashi, yani, yallig'lanishi bilan kasallanadiganlari ko'plab uchraydi. Bunga ekologik omillar bilan bir qatorda sog'lom turmush tarziga, sanitariya gigiyena qoidalariga to'la rioya etmaslik, shifokor tavsiyasini olmasdan dori-darmon istemol qilish. Nafas yo'llarini yallig'lanishi kuchaygan mavsumda tibbiy ko'rikdan o'tmaslik natijasida nafas yo'llarining yallig'lanishi kasalliklarining oddiy engil turlaridan o'tkir va surunkali bosqichlari rivojlanib ketishiga sabab bo'lmoqda [3].

Mutaxassislarning fikrlariga qaraganda nafas yo'llarining yallig'lanishi kasalligini kelib chiqishini oldini olish o'z vaqtida tashxis qo'yish va davolash jahon tibbiyoti oldida turgan dolzarb muamolardan biridir.

Hozirgi kunda bu borada zamonaviy diagnostika, har xil laboratoriya tekshiruvlari, jumladan laringoskopiya, faringoskopiya va shunga o'xshash diagnostika usullaridan, davolash vositalaridan keng foydalanilmoqda. Shunga qaramay nafas yo'llari yallig'lanishi kasalliklarini engil formolari, ayniqsa, yosh bolalarda asoratlari qolishi natijasida aziyat chekishmoqda. Sog'lom turmush tarziga rioya etmaslikni kasallikni yengil formalarini o'z vaqtida davolamaslik, immunitetning tushib ketishi natijasida nafas yo'llarining kompleks yallig'lanishiga sabab bo'lmoqda. Bu esa nafas yo'llarining yuqumli kasalliklarini kelib chiqishiga va har xil allyergik kasalliklarga duchyor bo'lishiga sabab bo'lmoqda [4].

Mavzuning maqsad va vazifalari. Nafas yo'llarining yallig'lanish kasalliklarida ishlatiladigan kimyoviy birikmalar mavzusida bitiruv malakaviy ish qilishimdan asosiy maqsad hozirgi kunda nafaqat vatanimiz balki, jahonning bir qator davlatlarida ko'payib borayotgan nafas yo'llarini yallig'lanishi kasalliklari bilan kasallangan bemorlarni sog'lig'i haqida qayg'urish, ularni davolash va oldini olishni chora- tadbirlarini ishlab chiqish nafas yo'llarini yallig'lanishi kasalliklarini

davolashda ishlatiladigan kimyoviy preparatlarni tarkibi bilan chuqurroq tanishish, kimyoviy preparatning kimyoviy tarkibini o'rganish va ularni tarkibidagi qaysi gruppalar kasallikni davolashda asosiy manba hisoblanishini va u qay darajada davolay olishini mexanizmini kimyoviy tomondan o'rganishdan iborat.

Shuni ta'kidlash kerakki kimyoviy preparatlarning foydali tomonlari bilan bir qatorda zararli tomonlari ham bo'ladi. Oldimizga qo'yiladigan vazifa nafas yo'llari yallig'lanishi kasalliklarini davolashda ishlatiladigan kimyoviy preparatlarni kimyoviy tarkibini o'rganib, inson organizmiga zarari, insonni o'ldirish dozalarini o'rganib chiqish. Kimyoviy preparatlarni kimyoviy tarkibini o'rganib, kimyoviy preparatlarning ekologik toza inson organizmiga tez ta'sir qiladigan turlarini tanlashdir.

BMI ning yangiligi. Nafas yo'llari shamollash kasalliklarida ishlatiladigan dorivor birikmalarni tibbiyotda keng qo'llanilib, ular tarkibidagi turli moddalar jumladan flavanoidlar, kumarinlar, efir moylari, saponinlar borligi va bu moddalar fiziologik faolligidir. Bu o'simliklarni o'rganish va amaliyotda qo'llashdan maqsad turli kasalliklar paydo bo'lganda davolash hamda organizmni sintetik dorilar zararidan himoya qilishdir. Chunki sintetik dorilar organizmning immunitet tizimiga salbiy tasir o'tkazadi. Shuning uchun biz dorivor o'simliklarni o'rganishga harakat qildik va bu o'simliklar yangi preparatlarga asos bo'ladi degan umiddamiz.

Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi: Bitiruv malakaviy ish so'z boshi, kirish, asosiy qism, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan. Bitiruv malakaviy ishning umumiy hajmi 70 varaq, va 3 ta jadvaldan iborat. Ko'rib chiqilgan adabiyotlar manbasi soni 25 tani, bularni ichida web-saytlar ham bor. Ko'rib chiqilgan ishlar mamlakatimiz, MDH va xorijiy mamlakatlar olimlari tadqiqotlari hisoblanadi.

1. Asosiy qism.

1.1. Nafas yo'llari yallig'lanishi kasalliklari haqida umumiy ma'lumot.

Ma'lumki, inson va tashqi muhit o'zaro bog'liq. Shuning uchun ular bir-biriga ta'sir ko'rsatadi. Chunonchi, havo harorati, uning namligi, shamol, quyosh nuri odam organizmiga ta'sir etib, har xil holatlarni keltirib chiqaradi. Bu turli kasalliklarga sabab bo'lishi mumkin.

Metereologik omillardan (masalan, havoning sovishi) organizmning kiyim yordamida himoya qilinishi odamning ushbu holatga qarshiligini kamaytirib, uni shamollash bilan bog'liq kasalliklarga beriluvchan qilib qo'yadi. Bular orasida nafas yo'llarining yallig'lanishi (shamollash) kuz va qish faslida ko'p uchrab turadi. Bu holat organizmi yaxshi chiniqmagan, kasalliklarga tez-tez chalinadigan nimjon odamlarda, ayniqsa, bolalarda ko'proq sodir bo'lib turadi.

Shamollashdan kelib chiqadigan xastaliklarga yuqori nafas yo'llarining yallig'lanishi (o'tkir va surunkali katar) va viruslar paydo qiladigan gripp kiradi. Ushbu kasalliklar asosan, havoning sovishi va sovuq tushishiga bog'liq bo'lgani uchun ular "fasl kasalliklari" yoki "fasl shamollashi" deb yuritiladi.

Yuqori nafas yo'llari katarida burun, tomoq, yutqin, halqum, traxeia va bronxlar shilliq qavatining yallig'lanishi kuzatiladi. Bular rinit (tumor), laringit, faringit, traxeit va bronxitlar deb yuritiladi. Ushbu kasalliklar yuqumli bo'lmasdan past haroratning butun tanaga yoki ayrim tana qismiga mahalliy ta'siri natijasida kelib chiqadi. Bunda shilliq pardalarning qon tomirlari torayishi kuzatiladi. Natijada bemorda tez-tez akshirish, burundan suv oqishi, ovozning o'zgarishi, yo'tal va boshqa holatlar vujudga keladi. Burun orqali nafas olish qiyinlashadi, bemor kechalari terlaydi, o'zini noxush sezadi.

Ko'pchilik bemorlar o'z kasalligiga ahamiyat bermasdan oyoqda o'tkazishadi. Lekin shuni aytib o'tish kerakki, ushbu shamollash holatlari har xil asoratlarga sababchi bo'lishi mumkin. Masalan, o'pkaning yallig'lanishi, quloqning yiringli kasalligi va boshqalar. Bularning sodir bo'lishi asosan og'iz va burun bo'shlig'idagi

mikroorganizmlarning sharoit yaxshi bo'lishi natijasida ko'payishiga bog'liqdir. Ushbu asoratlar yosh bolalarda, chaqaloqlarda ko'proq bo'lib turadi. Asorat bo'lmasa kasallik 5-6 kun davom etib, bemor sog'ayib ketadi.

Yuqori nafas yo'llarining shamollashi o'zining ko'rinishi, davom etishi va belgilariga ko'ra gripp kasalligini eslatadi [5].

1.2. Nafas olish organlarining yallig'lanishi kasalliklari.

Burun ichki shilliq pardasining yallig'lanishi (rinit) odamda aksa urish, burundan suv oqishi, burun orqali nafas olishning qiyinlashishi bilan harakterlanadi. Bunda o'rta quloq bilan burun-halqum bo'shliqlarini tutashtiruvchi evstaxiyev nayining shilliq pardasi ham yallig'lanishi tufayli o'rta quloq bo'shlig'ida havo bosimi o'zgaradi. Buning natijasida ayrim hollarda quloqning nog'orasimon pardasi yallig'lanadi, taranglashib og'riydi, ba'zan tana harorati ko'tariladi. Tomoqning shilliq pardasi yallig'langanda (farangit) tomoqda og'riq seziladi, ovqat yutish qiyinlashadi. Ko'pincha tomoqdagi bodomsimon bezlar ham yallig'lanadi. Bu kasallik angina deb ataladi. Bunda bemor darmonsizlanadi, tana harorati ko'tarilishi mumkin. O'z vaqtida davolash tadbirlari ko'rilmasa, tomoq bezlaridagi mikroblar limfa va qon orqali yurak, buyrak va boshqa organlarni zararlanishi mumkin.

Hiqildoq shilliq pardasining yallig'lanishi (laringit) odamda quruq va quloq, og'riqli yo'talish, tovushning bo'g'ilishi bilan harakterlanadi. Troxeya va bronxlar shilliq pardasining yallig'lanishi (traxeit va bronxit) ko'pincha birga sodir bo'ladi.

Yo'talish, yo'talgan vaqtda to'sh suyagining orqa tomonida qirilib og'rish, shilimshiq balg'am ajralishi bu kasallikning asosiy belgisidir. O'pka to'qimasining yallig'lanishi zotiljam kasalligi deb ataladi. Bunda bemor yo'taladi, nafas olish tezlashadi, ko'krak qafasida og'riq, darmonsizlik, tana haroratining ko'tarilishi kabi belgilar yuzaga keladi.

O'pkalarni tashqi tomondan o'rab turuvchi plevra pardalarining yallig'lanishi plevrit deb ataladi. Plevrit ikki xil quruq va ekssudatli plevrit bo'ladi. Quruq plevritda plevra pardalari yallig'lanishi tufayli ko'krak qafasida og'riq seziladi. Ekssudatli (ho'l) plevritda ikki qavat pleva pardalarining orasiga suyuqlik to'planadi. Bu suyuqlik o'pkani qisib qo'yishi tufayli bemorning nafas olishi qiyinlashadi, uning lablari ko'karadi, umumiy holati og'irlashadi [6].

Laringit

Ta'rifi. Laringit-bu hiqildoq shilliq pardasining o'tkir va surunkali yallig'lanishi hisoblanadi. Virusli infeksiyalar epidemiyasi qo'zishi natijasida kech kuzda, qishda, erta bahorda kuzatiladi.

Davolash. Davolashni olib borish tamoyillari. Ovozni zo'riqtirmaslik, bug'ingalyatsiyasi(natriy gidrokarbonat va har xil giyohlar damlamasi), ko'p miqdorda suyuqlik ichish, chekishdan voz kechish, oshqozon-qizilo'ngach refluksi profilaktikasi maqsadida-to'la oshqozon bilan yotmaslik, ovqatlangandan so'ng qorin bo'lig'ini kermaslik, parhez, qattiq va sovuq ovqatlarni iste'mol qilmaslik.

Dorivor moddalar bilan davolash. Antibiotiklar, Virusli laringitda ko'rsatilmagan, streptokokk va pnevmokokkli infeksiyada-250mg.dan kuniga 6 mahal 10 kun fenoksimetilpenitsillin, ampitsillin 250-500mg.dan yoki eritromitsin 250mg.dan buyuriladi. Simtomik davoda narkotik bo'lmagan analgetiklar masalan, (atsetilsolitsil kislotasi yoki parasitamol) beriladi. Yo'talga qarshi vositalar, masalan, glautsin 50mg.dan kuniga 2-3 mahal, prenoksdiazin 100mg.dan kuniga 3-4mahal (bolalarga 25-50mg.dan kuniga 3-4mahal). Soxta krupni davolash.

Reflektor ta'sir-bo'g'ilish hurijini halqum refleksini qo'zg'atib yo'qotish mumkin. Chalg'ituvchi vositalar-xantal, oyoqlarga issiq vannachalar, bug'ingalliyatsiyalari, qontomirlarini toraytiruvchi preparatlardan ingalliyatsiya, masalan, 0,1% epinefirin, antigistamin moddalar, masalan, prometazin 25-75mg.dan, kasallik avjiga chiqqanda-GK, masalan, prednizolon mushak orasiga, 2-bosqichdagi hiqildoq stenozi yuzaga kelsa (ayniqsa bolalarda O'RVIfonida)-tezlikda intubatsiya va

traxeostomiya qilish zarur bo'lib qolishi sababli bemor shoshilinch LOR bo'limiga yotqiziladi, ginyerplaziyada esa xirurgik yo'li bilan davo choralari ko'riladi.

O'tkir kataral laringit

Ta'rifi. O'tkir kataral laringit-hiqildoq shilliq, shilliq osti va ichki mushak qavatining kataral yallig'lanishi. Laringit kasalligi yakka holda kamdan-kam uchraydi, ko'pincha virusli ifektsiyalar yoki O'RVI belgisi sifatida kechadi.

Davolash: Rejim, o'tkir yuqumli kasallikda kuzatilgan o'tkir laringitda-uyda yotoq tartibi, qolgan hollarda tovush- nutq bilan bog'liq kasbdagi kishilar (pedagog, artist, diktorlar) dan tashqaridagilar, ishdan ozod qilinmagan holda ambulator davolanadi, tovushni asrash, ratsionda o'tkir va issiq ovqatlar, spirtli ichimliklar bo'lmasligi, chekishdan voz kechish, ingalyatsiyalar (bug'li, ishqoriy, moyli, o't damlamalari bilan), isituvchi kompresslar, hiqildoq sohasi UVCH, mikroto'lqinli davo, aerozol preparatlar: kameton, ingalipt, kamfomen, hiqildoqqa 1% moyli mentol eritmasi, bir necha tomchi 0,1% epinefrin qo'shilgan gidrokortizon emulsiyasi quyiladi, antibiotiklar, virusli laringitda ishlatilmaydi, streptokokkli va pnevmokokkli infeksiyalarda – penitsillin preparatlari (fenoksimetilpenitsillin 500 mg. dan kuniga 4- 6 mahal , ampintsellin 250-500 mg.dan 4 marta) yoki makrolidlar (eritromitsin 250 mg.dan kunda 4 marta) 7 kungacha. Yo'talga qarshi dorilar, masalan, gluatsin 50 mg.dan kunda 2- 3 marta, prenoksdiazin 100 mg.dan kunda 3-4 marta , Antigistamin vositalar, masalan, prometazin 25-75 mg.dan , soxta krup (bo'g'ma) rivojlanganda, Reflektor ta'sir- bo'g'ilish hurujini halqum refleksini chaqirish to'xtatish mumkin, Chalg'ituvchi davo: garchichniklar, oyoqqa issiq vannalar, har soatda bug'li vannalar, belgilar avj olganda – GK (masalan, prednizolon mushakka) , II darajali hiqildoq stenozida LOR bo'limiga kechiktirmay yotqiziladi, chunki zudlik bilan intubatsiya yoki traxeostomiyaga zarurat paydo bo'lish ehtimoli mavjud.

O'tkir flegmonoz laringit.

O'tkir flegmonoz laringit-hiqildoqning o'tkir yallig'lanishi, bunda yiringli jarayon faqatgina shilliq osti qavat emas, balki mushaklarga, halqum boylamlariga ba'zan esa tog'ay ustiga va tog'aylarga tarqalishi mumkin.

Yosh bo'yicha ustunlik – o'rta yoshdagilar. Jins bo'yicha ustunlik – erkaklarda.

Etiologiyasi. Kokkli flora (streptokokk, stafilokokk, pnevmokokklar), og'iz bo'shlig'idagi spiroxeta va duksimon tayoqchalarning qo'shalishidan ham yuzaga keladi.

Davolash. Ixtisoslashtirilgan bo'limlarga yotqizish, ta'sir doirasi keng antibiotiklardan benzilpenitsillinning (natriyli tuzi) paralaringeal yo'l bilan yuborish, Sulfanilamid preparatlar (sulfadimetoksin, sulfalen), gormonal preparatlar (prednizolon, gidrokortizon), antigistamin preparatlar (prometazin, xloropiramin, klemastin, mebhidrolin), Siydik haydovchi vositalar (furosemid), mahalliy novokain blokadasi, 10% li kaltsiy xlorid eritmasi bilan elektroforez va 1% li difengidramin eritmasi, hiqildoq atrofiga ingalyatsiya ((ishqor, moyli), 2%li protargol, na'matakli, oblipixali, shaftoli moyli eritmalarida hiqildoqqa qo'yiladi, agar abstsess bo'lsa, uni yorish kerak, hiqildoqning o'tkir stenozida – tezkor traxeostomiya, yiring bo'yin va ko'z oraliq'iga tarqalganda – bo'yinda yorish yoki bo'yin medastinotomiyasini o'tkazish.

Surunkali laringit.

Surunkali laringit – hiqildoq shilliq qavati, shilliq osti qavati va mushak qavatining surunkali yallig'lanishidir.

Surunkali kataral laringit.

Davolash. Etimologik omilini yo'qotish, ovoz kuchini kamaytirish, 150000 TB benzilpenitsillinni, 250000 TB streptomitsinni, 25 mg. gidrokortizon, 4ml. 0,9% li natriy xlorid eritmalaridan 2 ml.dan kuniga 1-2 mahal , 10 kun moboynda. Bu aralashmadan tomoqqa quyiladi, agar cho'ziluvchan shilliq bo'lsa, gidrokortizon o'rniga 25 mg. ximopsinni almashtirish mumkin. Har kuni 2% li sitralning yog'li

eritmasidan kunda 1-2 mahal 10 kun moboynda ingalyatsiya qilish, iqlim bilan davolash.

Surunkali atrofik laringit.

Klinik ko'rinishi. Hiqildoq qurishi, xirillash, ovozning tez charchashi.

Davolash. Kasallik sababini yo'qotish, chekishni to'xtatish, ta'sirlantiruvchi ovqatdan voz kechish, ovozni ehtiyot qilish rejimi, hiqildoqni tozalash, 200 ml. 0,9% li natriy xlorid eritmasidan va 5 tomchi 10% li yod eritmasidan iborat suyuqlikni kunda 2-3 mahal ingalyatsiya qilish (muolaja uchun 40-60 ml) 5-6 hafta davomida va bundan ham ko'proq, agar hiqildoqda cho'ziluvchan shilliq va yaralar bo'lsa, 5 kun davomida ishqor- moyli ingalyatsiya, hiqildoq ichiga 1-2% li mentolning moyli eritmasidan har kuni 10 kun davomida quyish, kaliy yodid (30% li eritmasidan 8 tomchidan) ichish sutkasiga 3 mahal 2 hafta davomida.

O'tkir faringit.

O'tkir faringit (o'f)-halqum shilliq pardasining o'tkir tutashgan yallig'lanishi. Aksariyat hollarda bu kasallik o'tkir burun kasalliklari sifatida kechadi, lekin alohida turlari ham uchray turadi. O'tkir faringit bakterial va virusli bo'lishi mumkin.

Davolash. Faringoskopiya halqumning orqa shilliq qavati, yumshoq tanglay-halqum ravoqlari gipyeremiyalangan, infiltratsiyalangan, shishgan "laklangan" ko'rinishda bo'ladi. Ayrim limfatik follikulalar kattalashgan, qizil rangda bo'rtib turadi. So'lak ko'p miqdorda ishlab chiqariladi. Laborator tekshiruvlar-umumiy qon taxlilida leykotsitar formula chapga siljiydi. Bakteriologik tekshiruvlar, virusalogik tekshiruvlar, o'tkir bakterial faringitda periferik qonda streptokokklar aniqlanadi.

Dorilar bilan davolash. Revmatik istimalash profilaktikasi maqsadida-antibiotiklar 10 kun davomida: fenoksimetilpenitsillin 200 mg 3 mahal. Eritromitsin kuniga 300-400mg 3 marta yoki sefalekssin 250 mg 3 marta.

Muqobil preparatlar. Bakteriya tashuvchilik holatida – penitsillin va rifampitsin preparatlari birgalikda qo'llaniladi. Sefolosporinlar penitsillinga nisbatan revmatik asoratlarni oldini samaraliroq oladi. Azitromitsin va klaritromitsin. azitromitsinning

afzal jihati – 5 kunlik qabuldan so'ng preparatning mikroblarga qarshi ta'siri 10 kun davom etadi.

Surunkali faringit.

Surunkali faringit(SF)- halqum shilliq qavatining surunkali yallig'lanishi bo'lib to'g'ri davolanmagan o'tkir faringit yoki sababi bartaraf etilmagan omillardan kelib chiqadi.

Davolash. Ambulator usulda parxez, ishqoriy, yog'li va giyohli ingalatsiyalar. Halqum granula va yon valiklarini kuydirish (gipyetrofik SF). Medikamentoz davokumush nitratning 10%-20% eritmasi, uchxlorsirka kislatasi. Fizik usulgalvanokaustika va kiriodavo, halqumning yon vakillariga biostimulyatorlar yuborish. Fiziodavo jag' osti sohasiga nikotin kislota bilan elektrofarez, induktotyermiya, magnitodavo va past enyergiyali lazer, bo'yin sohasiga valchiqli appilikatsiyalar. Proteolitik fermentlardan ingalyatssiya, baliq va oltingugurt vodorodli manbalari bo'lgan nam iqlim sharoitidagi sanatoriya va kurort davolash [7].

O'tkir bronxit.

O'tkir bronxit- bronxlarning o'tkir yallig'lanishi , nafas a'zolari ko'p uchraydigan kasalliklardan biri.

Davolash. O'tkir bronxitning yengil turi bilan og'rigan bemorlar ko'pincha uyda davolanadilar. Og'ir formasida bemorni kasalxonaga yotqizish zarur. Bemor yotgan xona toza, yorug' va tez-tez shamolatib turiladigan bo'lishi kerak. Issiq, achchiq, qovurilgan ovqatlar, shilliq pardalarni ta'sirlantiradigan mahsulotlar va spirtli ichimliklarni iste'mol qilish qat'iyman etiladi. Bemorni sovuq qotishidan qattiq isib ketishdan asrash kerak bo'ladi. Shamollashga qarshi va og'riq qoldiruvchi dorilardan analgin 0,5g dan 2-3 mahal, amidopirin 0,5g dan 2-5 mahal, vitamin C ichish buyriladi. Balg'am ko'chishini yengillashtirish uchun termopsis, altey damlamasi, mukaltin, bromgeksin 0,008 g, bronxolitin, sodali ingalatsiya buyuriladi. Nafas qisishini to'xtatish uchun teofedrin 0,025 g dan 2 mahal, og'ir holatlarda 6-8 kunga 20-30 mg kortikosteroidlar buyriladi. Antibiotiklar: 600 000 - 800 000 TB (ta'sir

birlik) penitsillin har 4-6 soatda mushak ostiga yuboriladi. 0,5 g dan streptomitsin, 1000 000 TB gacha oleandomitsin fosfat, sezuvchanlikni aniqlash buyuriladi. Sulfanilamid preparatlardan: etazol 0,5 g 4 mahal, sulfadimetoksin 0,5 g dan 3-4 mahal ichish buyuriladi (bemorda qarshi ko'rsatmalar bo'lmasligi kerak).

Chalg'irtuvchi vositalar: kurakka gorchichniklar qo'yish, oyoqqa issiq vannalar qilish, ingalatsiya qilish [8].

Surunkali bronxitlar

Surunkali bronxit, ko'pincha, o'z vaqtida davo qilinmagan va davosi oxirigacha olib borilmagan o'tkir bronxitning oqibati hisoblanadi.

Surunkali bronxitning sabablari: o'z vaqtida davolanmaslik, oxirigacha davolanmaslik, organizmning zaiflashishi, chekish, sovqotish, zarali bug'lar, gazlar, kimyoviy moddalar, xronik pnevmaniya, uremiya, qonning yaxshi aylanmasligi. Xronik bronxitlarda zo'rayib borayotgan tarqoq yallig'lanish kuzatiladi, ba'zi struktura o'zgarishlar boshlanishi ham mumkin: bronxlarning yupqa tortib qolishi, bronx yo'lining kengayib ketishi shular jumlasidandir.

Tasnifi. (A. Kokovski va V. A. Gerasin , 1984):

Yallig'lanish harakteriga qarab:

-kataral surunkali bronxit;

- yiringli surunkali bronxit;

II. Funktsional harakteriga qarab;

-obstraktiv surunkali bronxit;

-obstraktiv bo'lmagan bronxit;

Davolash. Surunkali bronxitni davolash o'tkir bronxitni davolash kabidir. Antibiotiklar dozasi bir oz ko'proq buyurilishi mumkin, ba'zan sefemez, kefzol, sefelogletsilin kabi antibiotiklar buyuriladi. Ba'zi hollarda ikkita va undan ortiq antibiotik qo'shib byeriganda, yaxshi natija beradi. Sulfanilamidlar tayinlanadi. Davolashda florani antibiotikka ta'sirchanligini va organizmni antibiotik ko'tara olishni aniqlash muhim ahamiyatga ega. Yana shuni qo'shimcha qilish mumkinki,

bronxirlarning drenaj funksiyasi buzilganligi uchun davolovchi bronxoskopiyadan keng foydalaniladi, bunda bronxlardagi balg'am so'rib olib tashlanadi va bronxlar yuviladi. Asoratlarni bo'lganda: o'pka gipertenziyasini kamaytirish uchun kislorodingalyatsiyasi, ganglioblokatorlar (pentamin, ganglyeron) buyuriladi.

O'ng qorincha etishmovchiligida yurak glikozidlari, siydik haydovchi vositalar buyuriladi. Kasallikning oldini olish uchun yuqorida keltirilgan sabablarni bartaraf etish zarur. Organizmni chiniqtirish, surunkali infektsiya o'choqlarini o'z vaqtida aniqlash va davolash uchun mahalliy shifoxonada profilaktika tibbiy ko'rigidan o'tish lozim.

Surunkali obstruktiv bronxit

Davolash. Bemorga vitaminlarga boy, to'laqonli parhez buyriladi. Dori-darmonlardan antibiotiklar, sulfanilamid preparatlar (sulfmonomentoksin, sulfaperidazin, sulfalen, balg'am ko'chiruvchi preparatlar, bronxolotiklar (efedrin, teofedrin, salbutamol va boshqalar) buyuriladi. Og'ir hollarda gormonal preparatlar, prednizalon, prednizon maxusus sxema bo'cha tavsiya etiladi. Bronx yo'llaridan balg'amdan tozalashda nafas gimnastikasining ahamiyati katta. Ko'krak qafasini massaj qilish va fizioterapevtik muolajalar (diatermiya, ko'krak qafasiga UVCH, kalsiy xloridli elektroforez va boshqa) zarur [9].

O'tkir zotiljam.

O'tkir zotirjam nafas olish azolari kasalliklari orasida ko'p uchraydigan, asosan, o'pka to'qimalari (alveolar oraliq to'qima, mayda qon tomirlar) ning o'tkir yalliqlanishi bilan kechadigan kasallikdir bu kasallik o'rta hisobda har 10000 aholiga 16 tadan to'g'ri keladi o'tkir zotirjam bilan har qanday yoshdagi odam kasalliklanishi mumkun. Ammo bu kasallik yosh bolalar va qariyalarda ko'p uchraydi. Kasallik o'zvaqtida davolansa, asorati qolmaydi. Agar kasallik o'z vaqtida davolanmasa, harxil og'ir asoratlarni keltirib chiqarish hatto o'limga olib kelishi mumkun.

O'tkir zotirjam kasalligini keltirib chiqaruvchi sabablar quyidagilar: bakterialar: pnemokoklar, sitaflakoklar, stetokoklar, Frindlender tayoqchasi, enterokokk, protey, ichak tayoqchasi va boshqalar.

Viruslar gripp, paragripp rinosinsitial viruslar adenoviruslar.

Mikoplazmalar. Riketsialar: kuriketsialar, zamburug'lar, kandidozlar, aspergilloz, ko'ksidioz. O'tkir zotirjam turli yuqumli: a) virus kasalliklar (ortinoz, psittakoz, ko'k yo'tal, qizamiq, suvchechak), b) bakterial kasalliklar (brutselloz, tularemiya, ichtellami) ko'rinishi yoki asorati sifatida ham rivojlanishi mumkun.

O'tkir zotirjamga, asosan, 54% da 74% gacha hollarda pnevmokoklar sabab bo'ladi. Gripp epidemiyasi vaqtida kasallikni virus va bakteriyalar birgalikda keltirib chiqaradi. Kilinik belgilari: Kasallik to'satdan boshlanib, bemorning tana harorati 39-40 °C ga ko'tariladi, eti qattiq junjikib qaltiraydi, darmoni qurib boshi og'riydi, terlaydi. Avval quruq, so'ra shilliq rangli qizg'ish balg'am ajratib yo'taladi. O'tkir zotiljamning rivojlanishiga qattiq sovuq qotish, jismoniy va ruhiy o'ta toliqish, tananing zaharlanishi hamda kasallikka qarshi kurashish qobiliyatining susayishi sabab bo'ladi.

O'tkir o'choqli zotiljam.

O'tkir zotiljam kasalligi o'pka bo'lagi va bir necha bo'lakchalarning o'tkir yallig'lanishidan kelib chiqadi. Yallig'lanish jarayoni, asosan, bronxlardan boshlanganligi uchun bronx zotiljam deb ataladi. Yallig'langan o'choqlarning katta – kichikligiga qarab, mayda o'choqli, yirik o'choqli va tutashgan o'choqli zotiljam farqlanadi. Yallig'langan o'choqlarning tutashishi natijasida o'pkaning segmenti, bo'lagi zararlanishi mumkin.

Etalogiyasi va patogenezi. O'tkir o'choqli zotiljam ko'pincha turli kasalliklar va shikastlanishlar oqibatida kelib chiqadi. Bu kasallik bronxit, gripp, yuqori nafas yo'llarining yalliqlanishi oqibatida vujudga keladi. Shuning uchun qish vaqtida gripp epidemiyasi, aholi o'rtasida o'tkir o'choqli zotiljam bilan kasallanishi ko'payadi. Bu

kasallik paydo bo'lishiga pnemokoklar, sitaflakoklar, stetokoklar, Frindlender tayoqchasi, viruslar, mikroplazma, rikketsialar sabab bo'ladi. Bundan tashqari, o'tkir o'choqli zotiljam qon aylanishi buzilganda, yurak kasalliklarida, ko'k yo'tal ich terlama, revmatizm, kollagenoz kasalliklarida, sepsis ayrim gazlardan zaharlanganda, narkozdan so'ng, ko'krak qafasi, qorin, bosh jarohatlanganda kelib chiqadi. Kasallik kelib chiqishida mikroblar ko'pincha nafas yo'llari orqali o'tib, aveolalarga boradi. Bunga bronx shilliq pardalarining to'siqli faoliyati pasayib ketgani sabab bo'ladi.

Plevrit.

Plevrit, ya'ni plevra yallig'lanishi, odatda ikkilamchi kasallik bo'ladi. Har bir krupoz pnemaniya aslida plevropnevmaniya bo'lib, u plevrit bilan birga davom etib boradi. Plevrit aksari sil infeksiyasi ustiga avj oladi, revmatizm, o'pka rakida uchraydi, shuningdek, travma oqibatida paydo bo'ladi. Plevritlar quruq va ekssudativ xillariga bo'linadi.

Quruq plevrit travmaga uchrashi, pnevmaniya bilan og'rishidir. Quruq plevritda yallig'lanish protsessi plevra bo'shlig'ida ekssudat paydo bo'lishiga olib bormaydi. Suyuqlik kam bo'ladi, u plevra varaqlarini go'yo moylab turadi va bu joyga cho'kmalar holida cho'kib turadi, shu narsa plevra varaqlarining sirg'alishini qiyinlashtirib qo'yadi. Yallig'lanish ekssudatida fibrin ko'p bo'ladi.

Klinik manzarasi. Bemor ko'krak qafasining u yoki bu yarmida qattiq og'riq borligidan, yo'talib turishi, tana temperaturasi ko'tarilishi, lanjlikdan noliydi.

Davosi. Kasalga tinch, issiq sharoit yaratib byerish, og'riqqa qarshi choralar ko'rish: ko'krak qafasini bog'lab qo'yish, plastir yopishtirib fiksatsiya qilish, navokain blokadasini buyurish o'rinlidir. Bankalar, gorchichniklar, kodein, amidopirin va boshqa dori-darmonlar bilan davolash buyuriladi.

Ekssudativ plevrit.

Ekssudativ plevrit etiologiyasida sil intoksikatsiyasi, pnevmoniya, revmatizm birinchi o'rinni egallaydi.

Davosi. Muhim davo chorasi plevrani punktsiya qilish, ya'ni plevra bo'shlig'idan ekssudatni chiqarib tashlashdir [10].

2. Dori vositalarining organizmga ta'siri

Tashqi omillarga dori moddasining kimyoviy tuzilishi, fizik-kimyoviy va farmakologik xossalari, shakli, dozasi, yuborish yo'li, ovqat bilan munosabati va xakozolar kiradi. Ichki omillarga esa odamning yoshi, jinsi, fiziologik yoki patologik xolati va boshqalar misol bo'la oladi. Ushbu omillarning ayrimlari to'g'risida so'z yuritiladi, chunki ularning bir qismiga (doza, yuborish yo'li, ovqat bilan munosabati va b.) kitobning oldingi bandlarida to'xtab o'tilgan.

Dori vositalari ta'sirining namoyon bo'lishida yoshning ahamiyati katta. Yosh bolalarning tanasi ko'pchilik dori vositalariga o'ta sezuvchandir. Ayniqsa, markaziy nerv tizimiga ta'sir etuvchi dorilarning kuchi yuqori bo'ladi. Ayrim dori vositalari (yurak glikozidlari, atropin va b.) samarasi esa yaxshi bilinmaydi. Bunday xolatlar bolalarning ichki a'zolari va tizimlari to'la darajada shakllanmagani bilan tushuntiriladi. Bu masalalarni o'rganish va taxlil etish bilan farmakologiya fanining tarmog'i bo'lgan *pediatriya farmakologiyasi* shug'ullanadi. Bolalar uchun dori vositalarini dozalanishi, ularning yoshga qarab berilishi va farmakoterapiyaning boshqa tomonlarini ushbu fan yo'nalishi o'rganadi.

Perinatal farmakologiya esa homilaning 24 xaftadan to tug'ilguncha, shuningdek, 4 haftagacha bo'lgan chaqaloqlik davrida dori vositalarining ta'sir xususiyatlarini o'rganadi. Chunki xomiladorlikning oxirgi trimestri va bir oygacha bo'lgan chaqaloqlarda dorilarga sezuvchanlik boshqalardan keskin farq qiladi.

Katta yoshdagilarda (60 yoshdan yuqori) ham turli dori vositalariga sezuvchanlik o'zgaradi. Chunki ularning tanasida modda almashinuvi, ichki a'zolar (jumladan, jigarning ham) faoliyati va boshqa fiziologik jarayonlar zaiflashgan bo'ladi. Ayniqsa,

uxlatuvchi, antigipertenziv, qustiruvchi dori preparatlarining ta'siri ancha kuchayadi va turli oqibatlarni keltirib chiqaradi. Bu yoshdagi shaxslarni dori vositalari bilan davolash va boshqa masalalar bilan geriatrik farmakologiya shug'ullanadi. Bu masalalarga dorilarni dozalanishi, katta yoshlilarga tavsiya etilishi yoki monelik qiluvchi xolatlar, dorilarning asoratlari, uning oldini olish va bartaraf etish kabilar kiradi.

Ayrim dori vositalarining ta'sir etish samarasi ayollar organizmida boshqacharoq tus olishi aniqlangan. Umuman olganda ayollar bir qator dori vositalariga (masalan, strixnin, nikotin, etil spirti va boshqalar) nisbatan yuqoriroq sezuvchanlikka ega. Bunday xolat dorilar metabolizmining sustroq bo'lishi bilan bog'liq deb taxmin qilinadi.

Yuqorida qayd etilganlardan tashqari, ichki a'zolar va tizimlarning fiziologik yoki patologik xolatlari ham dori vositalari samarasini namoyon bo'lishida ahamiyatlidir. Shunday dori vositalari borki, ularning farmakologik ta'siri fiziologik faoliyati-qo'zg'aluvchanligi susaygandagina aniq yuzaga chiqadi. Masalan, kofeinning markaziy nerv tizimiga, chunonchi nafas markaziga rag'batlantiruvchi ta'siri bu tizim yoki markaz faoliyati susayganda kuchliroq namoyon bo'ladi.

Bir qator dori vositalarining farmakologik ta'siri ko'proq patologik xolatlardagina yuzaga chiqadi. Masalan, yurak glikozidlarining kardiotonik ta'siri yurak faoliyatining etishmovchiligida, dekompensatsiya davrida (gemodinamikaning yomonlashishi, shishlar paydo bo'lishi va b.) aniqroq bilinadi. Aspirinning isitmani tushiruvchi ta'siri ham tana xarorati ko'tarilgandagina namoyon bo'ladi.

Ayrim dorilarning ta'siri irsiy omillarga ham bog'liq. Masalan, tanada irsiy kamchilik-xolinesteraza fermentining etishmasligi tufayli antixolinesteraz preparatlarning kor etishi kuzatilmaydi (prozerin, galantamin va b.), miorelaksant

(tana mushaklarini bo'shashtiradigan) ditilinning ta'siri esa uzayadi. Muayyan irsiy kamchiliklarda ayrim dorilarning ta'siri boshqacha tus olib, kutilmagan reaksiyalar kuzatiladi (idiosinkraziya). Masalan, bezgakda ishlatiladigan 8-aminoxinolin unumlari irsiy enzimopatiyalari bo'lgan odamlarda eritrotsitlar gemolizini chaqirishi mumkin (glyukoza-6-fosfatdegidrogenaza fermentining etishmasligi gemolitik ta'sirga ega xinonni xosil bo'lishiga sabab bo'ladi). Dori moddalariga sezgirlikning irsiy omillarga bog'liqligini farmakogenetika o'rganadi.

Xronofarmakologiya: Xronofarmakologiyaning asosiy vazifasi turli dori vositalar ta'sirining bioritmik jarayonlar bilan bog'liqligini o'rganish. Xronofarmakodinamika (xronesteziya) dorilarga sezuvchanlikning, xronofarmakokinetika (xronokinetika) esa farmakokinetik ko'rsatkichlarning kun davomida o'zgarib turishini o'rganadi.

Ma'lumki, kun davomida a'zolar, tizimlar va organizmning fiziologik faoliyati doim bir me'yorda bo'lmasdan tebranib, o'zgarib turadi va biologik ritmga bo'ysunadi («sirkad ritmlar»). Bu har kecha-kunduzda, yil fasllari davomida kuzatilib, a'zolar faoliyatining zo'rayishi (akrofaza) va susayishining (minifaza) bir-biri bilan almashib turishi bilan ifodalanadi. Bunga misol qilib, uyqu va bardamligni kun va tun singari almashib turishini keltirish mumkin. Xujayrada sodir bo'ladigan kimyoviy, biofizikaviy va biokimyoviy tebranishlar juda kichik vaqt ichida ham sodir bo'lishi mumkin. Masalan, yurak urishining 1 daqiqada 60-70 marta qaytarilishi miokardning shuncha qisqarishi (sistola) va bo'shashishi (diastola) bilan namoyon bo'ladi. Demak, bir soniyada miokard xujayralarida bo'ladigan jarayonlar tebranishi ritmik ravishda o'zgarib turadi. Bioritmlarning davrlari genetik, funktsional va patologik jarayonlarga bog'liq.

Organizmda sodir bo'ladigan bunday o'zgarishlar dori vositalar samarasiga ta'sir etmay qolmaydi. Masalan, akrofaza davrida qo'zg'atadigan ta'sirli dorilarga sezuvchanlik va javob reaksiyasi ko'payadi, minifazada esa aksincha kamayadi,

susaytiruvchi preparatlarga sezgirlik ortadi. Shu sababdan, jinsiy bezlar gormonlari va glyukokortikoidlar o`rinbosar vositalar sifatida ertalabki soatlarda berilishi samarali bo`ladi, chunki gormonlarning tegishli bezlardan ishlab chiqarilishi shu vaqtda kuchaygan bo`ladi. Allergiya kasalliklarida glyukokortikoidlarni kechki soatlarda berilishi ma'qul, chunki allergiyaning akrofazasiga qarshi turiladi. Har bir kasallikka davo ko`rsatish uchun ishlatiladigan preparatlar akrofaza boshlanishidan oldinroq berilishi maqsadga muvofiqdir. Masalan, qandli diabet kasalligida gipoglikemik dori vositalari ovqatdan yarim-bir soat oldin beriladi.

Dori vositalari kor qilishida faslning axamiyati ham bor. Masalan, jenshen preparatining kuch-quvvatni oshiruvchi ta'siri yoz faslida uncha bilinmaydi, qishda esa yaxshi namoyon bo`ladi.

Bioritmga bog`liq bunday o`zgarishlar faqat dorilar farmakodinamikasiga taaluqli bo`lmay, ularning farmakokinetikasiga ham tegishlidir. Dorilarning ichakdan so`rilishi, qondagi miqdori, tanada tarqalishi, metabolizmi va chiqib ketishida sezilarli o`zgarishlar ro`y berishi mumkin. Masalan, ertalabki soatlarda (7-11 larda) aspirin, indometatsin, amidopirin, ampitsillin, teofillin kabi dori vositalarining qondagi miqdori ancha yuqori bo`ladi.

Demak, dori vositalari faolligining bioritmlar bilan bog`liqligi keltirilgan misollarda tasdiqlangan va bu farmakoterapiyada e'tiborga olinishi kerak.

**Dorilarni ovqat bilan o`zaro munosabati:** Og`iz orqali qabul qilingan dori preparatlari ichakdan so`rilishiga qadar turli omillar, sharoitlar, jarayonlar ta'sirida har xil o`zgarishlarga uchrashi mumkin. Bu omillarga me'da-ichak fermentlarining doriga ta'siri, bo`shliqdagi pH muxiti, me'da-ichakdagi fiziologik va patologik xolatlar, shu bilan bir qatorda ovqat massasini bo`lishi, uning tarkibi kiradi. Dori preparatlarini og`iz orqali qabul qilinganda uning vaqti, bemor iste'mol etgan ovqatning tarkibi,

xajmi, shu bilan birga dorining fizik-kimyoviy xususiyati, uning shakli, ta'sir mexanizmi aloxida amaliyot kasb etadi.

Qabul qilingan ovqat tarkibi dorining so`rilish tezligi va miqdoriga, me'da-ichak sekretor va xarakat faoliyatiga o`z ta'sirini ko`rsatadi. Dorining kutilgan samarasi ushbu jarayonlarga bog`liq. Masalan, oqsillarga boy bo`lgan ovqat maxsulotlari (sutli maxsulotlar) ayrim dori moddalarini biriktirib, ularni so`rilishini qiyinlashtiradi. Bunga kofein saqlovchi preparatni sut bilan iste'mol qilinganda, uning 30 % i oqsillar bilan birikishi, uning birikmadan ajrashi asta-sekin yuz berishi, tetratsiklinning sut maxsulotlari bilan birga qabul etilishi natijasida kaltsiy ionlari bilan birikib, qiyin eruvchan modda xosil bo`lishi misol bo`la oladi. Fitin saqlovchi ovqat maxsulotlari (bug`doy, yong`oq va b.) xamda sut maxsulotlari temir saqlovchi preparatlar bilan birikib, yomon eruvchan birikmalar hosil qiladi va dori preparatlarini so`rilishiga salbiy ta'sir etadi. Xazm yo`llarida oqsilga boy ovqatni bo`lishi sulfanilamidlar (sulfademizin, etazol, norsulfazol va b), antikoagulyantlar (neodikumarin, sinkumar va b.) so`rilishini o`zgartirishi mumkin. Ushbu o`zgarishlar oqsilsiz oziq-ovqatlarga (parxezga) o`tish zarurligini anglatmaydi, faqat taom va dorini qabul qilish vaqtini to`g`ri belgilashni taqozo etadi.

Ovqat maxsulotining tarkibiga ko`ra, xazm yo`llarining qisqaruvchanlik va sekretor faoliyati turlicha o`zgarishga uchrashi mumkin. Masalan, yog`lar (yuqori yog` kislotasini tutuvchi maxsulotlar) me'da xarakatini va shira ajratishini pasaytiradi. Bu me'da sekretsiasini kamaytiruvchi xususiyatga ega bo`lgan endogen polipeptid-enterogastrin ta'siri bilan tushuntiriladi. Buning natijasida me'dada ovqat massasini xarakati va hazm bo`lish jarayonlari sekinlashadi.

Xazm yo`llaridan ovqatning xarakat tezligi faqat uning tarkibi va xajmiga bog`liq bo`lib qolmay, uning xaroratiga ham taaluqli. Masalan, unli maxsulotlardan tayyorlangan oziq-ovqatning taxminan yarim qismi xona xarorati (20-22⁰C)

darajasida 22 daqiqadan so`ng me'dani tark etadi. Tana xaroratigacha (37°C) isitilgan ushbu ovqat massasi me'dani tark etish vaqti esa 7 daqiqani tashkil etadi.

Surgi dori vositalari, katta xajmdagi ovqat massasi, ayrim shirinliklar ichak xarakatini oshiradi. Buning natijasida dorilarning so`rilishi sezilarli kamayadi.

Turli oziq-ovqat maxsulotlari dorilarning metabolizmiga ham ta'sir ko`rsatishi aniqlangan. Masalan, oqsillarga boy bo`lgan parxezda teofillin va antipirin metabolizmi kuchayadi, folat kislotaga boy bo`lgan ovqat maxsulotlari (pomidor, sabzi, ko`katlar, jigar, tuxum, buyrak) va paraaminobenzoy kislota qoldiqlarini saqlovchi dori preparatlari (novokain, PASK, dikain) sulfanilamid dori vositalari bilan bemorlarga davo qilish davrida tavsiya etilmaydi, aks xolda davolash samarasiz bo`ladi.

Nitrit va nitratlar oziq-ovqat sanoatida keng qo`llanadi (masalan, 100 g` kolbasada 5 mg nitrit bor). Ular tanada kontserogen nitrozoaminlar xosil qilishi mumkin. Ushbu miqdor me'yorida bo`lsada, iste'mol qilinadigan mevalar, ichimlik suvi tarkibidagi nitrozoaminlar bilan qo`shilib, xavfli kontsentratsiyagacha etishi mumkin. Nitrobirikmalar xosil qiluvchi dori vositalariga antipirin, amidopirin, fepranon, dezapimon, antidiabetik biguanidlar, aminazin, tetratsiklin preparatlari kiradi.

2.1. Nafas a'zolariga ta'sir ko'rsatadigan vositalar.

Bu guruhga quyidagi vositalar kiradi:

- nafas stimulatorlari;
- yo'talga qarshi vositalar:
- balg'am ko'chiruvchi vositalar:
- bronxial astmada qo'llaniladigan vositalar.

Nafas stimulatorlari:

Nafas stimulatorlari deb uzunchoq miyada joylashgan va nafas jarayonini idora qiladigan nafas markaziga ta'sir ko'rsatib, uning faoliyatini jonlantiradigan preparatlarga aytiladi. Ular ta'sir mexanizmiga ko'ra quyidagi guruhlarga ajratiladi:

- nafas markazini bevosita faollashtiruvchi dori vositalari;
- bilvosita ravishda nafasni qo'zg'atuvchi dori vositalari;
- aralash ta'sirga ega bo'lgan dori vositalari.

Nafas markazini bevosita faollashtiradigan dori vositalariga psixostimulator va analeptik ta'sirga ega kofein, bemegrid, etimizol preparatlari kiradi.

Ktimizol — bosh miyaning po'stloq osti tizimlari va uzunchoq miya markazlarini faollashtiradi. Analeptiklardan farqli o'laroq, etimizol miya po'stlog'iga susaytiruvchi ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli faqat nafas faoliyatini jonlantirish uchun emas, tinchlantiruvchi vosita sifatida ruhiy kasalliklar amaliyotida ham qo'llaniladi. Ichga va parenteral beriladi.

Reflektor ravishda bilvosita ta'sir etuvchi dori vositalariga sititon va lobelin gidrokloridi kiradi. Ular sinokarotid zona N- xolinoretseptorlarini qo'zg'atadi, natijada hosil bo'lgan afferent impulslar uzunchoq miyaga boradi va nafas markazini qitiqlaydi. Aralash ta'sirga ega vositalarga kordiamin va uglerod (IV) oksid misol bo'la oladi. Ularning ta'siri markazga va karotid koptokcha xemoretseptorlarini qo'zg'atish bilan birga namoyon bo'ladi.

Nafas stimulatorlari narkotik analgetiklar bilan, is gazi bilan yengil zaharlanganda, chaqaloqlar asfiksiyasida narkozdan so'ng o'pka ventilatsiyasini tiklash maqsadida ishlatiladi. Og'ir hollarda esa sun'iy nafas oldirishga o'tiladi. Bilvosita analgetiklar, uxlatuvchi, narkoz moddalari bilan zaharlanganda qo'llanilmaydi.

Yo'talga qarshi vositalar

Bu guruhga kiruvchi vositalar ta'sir mexanizmiga ko'ra ikkiga bolinadi: markaziy va periferik ta'sirga ega prepanitlar. Markaziy ta'sirga ega vositalar — kodein,

etilmorfin uzunchoq miyada joylashgan yo'tal markazini susaytiradi. (Narkotik analgetiklarga qarang!) Periferik ta'sirga ega vositalarga libeksin va boshqalar misol bo'la oladi.

Libeksin. Uning ta'sir mexanizmi yuqori nafas yo'llari shilliq pardasining sezuvchanligini pasaytirishi, shuningdek bronxolitik xususiyatlar bilan bog'liq. MNTga ta'sir etmaydi, shu sababli qaramlik chaqirmaydi. Yo'talga qarshi faolligi bo'yicha kodeinga yaqinlashadi. Nafas yollari yallig'lanishi (o'tkir va sumnkali bronxit)da qo'llaniladi.

Glautsin gidroxlorid. Alkaloid. Yo'talga qarshi ta'sir ko'rsatadi. Kodeindan o'laroq, nafasga ta'sir qilmaydi, qaramlik keltirib chiqarmaydi. Qisman adrenolitik ta'siri bo'yicha qon bosimini tushirishi mumkin.

Tusupreks (okseladin sitrat). Yo'tal refleksining markaziy qismiga ta'sir etib, yo'talni qoldiradi. Nafas markaziga ta'sir etmaydi. Qaramlik bermaydi. O'pka va nafas yo'llari kasalliklarida ishlatiladi.

Preparatlar.

Libeksin (*Libexin*). Tabletkalarda 0,1 g dan ishlab chiqariladi. 1 tabletkadan kuniga 3—4 marta, og'ir hollarda 2 tabletkadan 3—4 marta ichiladi.

Glaucini gidroxlorid (*Glaucini hydrochloridum*). Tabletkalarda 0.05 g dan ishlab chiqariladi. 1 tabletkadan kuniga 2—3 marta ovqatdan keyin ichiladi.

Okseladin sitrat (*Oxeladin eitraz*). Tusupreks. Parda bilan qoplangan tabletkalar shaklida 10 yoki 20 mg dan ishlab chiqariladi. 1 tabletkadan kuniga 3—4 marta ichiladi.

Glaucini hydrochloridi 0,05 N.20 ml

Balg'am ko'chiruvchi vositalar: Ta'sir mexanizmiga ko'ra ularning quyidagi guruhlari farqlanadi:

— *balg'am ko'chiruvchi vositalar* — termopsis o'ti, gulxayri ildizi, qizilmiya ildizi, mukaltin, glitsirram, andiz, botqoq ledumi. katta tog'jambil, pektussin.

terpingidrat, natriy benzoat, likorin gidroklorid:

— *mukolitiklar* — atsetilsistein, karbosistein. bromgeksin, ambroksol. tripsin;

— *surfaktantlar* — kurosurf, ekzosurf.

Ma'lumki, balg'amning chiqib ketishi bronxlardagi silliq mushaklarning sekinlik bilan tolqinsimon qisqarib turishiga va kipriksimon epiteliyning tomoq tomoniga qarab harakatlanishiga bog'liq. Bundan tashqari, bronxlarning shilliq qavatidagi shilimshiq ishlab chiqaruvchi bezlar faolivati ham ahamiyatlidir.

Balg'am ko'chiradigan dorilarga me'da shilliq qavatining retseptorlarini ta'sirlab, bronxial bezlar sekretsiasini kuchaytiradigan harakatlanuvchi epiteliy faolligini zo'raytiradigan va buning natijasida balg'amni suyiltirib, chiqib ketishini osonlashtiradigan preparatlar kiradi. Bunday ta'sir asosan, qustiruvchi vositalarning kichik dozasiga xosdir. Ular ko'pincha bilvosita ta'sir etadigan preparatlar deb ham yuritiladi. Nafas yo'llarining yallig'lanishida va boshqa xastaliklarda ushbu dori vositalari balg'am ko'chishini yengillashtirib, yo'talni yumshatadi. Yallig'lanishni kamaytiradi. Shu bilan kasallikning kechishiga ijobiy ta'sir qiladi. Balg'am ko'chiradigan bunday vositalarga turli-tuman, ko'proq o'simliklardan tayyorlangan preparatlar kiradi.

Bevosita ta'sir etadigan balg'am ko'chiruvchi preparatlarga tripsin, yod va brom saqlagan preparatlar kiradi. Oshqozonosti bezining fermenti hisoblangan tripsin oqsil moddalarni parchalaydi. Balg'am ko'chiruvchi sifatida uning eritmaları nafas yo'li orqali yuborilganda balg'amdagi oqsillarni parchalab, uni yumshatadi. Ko'p balg'am ajralishi bilan kechadigan ayrim kasalliklarda (bronxoektatik kasallik) tripsinni qo'llash yaxshi natija beradi. Bevosita ta'sir etuvchilarga kaliy yodid va natriy yodid hamda bromgeksin preparatlari kiradi. Ular qabul qilingandan so'ng shilliq pardalar (chunonchi, bronx shilliq pardalaridan ham) chiqariladi. Ular pardada joylashgan sekret ishlab chiqaradigan hujavralarda faoliyatini yaxshilaydi va balg'amning suyuqlik darajasi oshadi, uning ko'chishi esa osonlashadi.

Balg'amni yumshatish xususiyati ishqoriy moddalarda ham bor. Chunonchi, natriy gidrokarbonat ingalatsiya yo'li bilan yuborilganda ham balg'am suyulib, ajralishi yengillashadi. Bilvosita va bevosita bronxlar sekretsijasiga ta'sir etib, balg'amni reflektor yo'l bilan hamda bronxlar shilliq pardasi orqali ajralib balg'amni suyultiruvchi preparatlarga novshadil — arpabodivon tomchilan kiradi.

Preparatlar: Alley ildizi (*Radix Ahhaeae*). Tarkibida 35%gacha shilimshiq, asparagine, betain, pentan moddasi va kraxmal saqlaydi, ekstrakt, kukun, damlama va qiyom ko'rinishida ishlatiladi.

Ko'krak termasi tarkibiga hamda yo'talga qarshi bolalarga beriladigan quruq mikstura tarkibiga kiradi.

Arpabodiyon mevasi (*Fruetus Anisi Vulgaris*). Tarkibida anetol (80%) saqlovchi efir moylari, oqsil moddalari bor. Balg'am ko'chiradigan vosita sifatida arpabodiyon moyi (2—8 tomchidan) ishlatiladi. Damlama sifatida (1 choy qoshiq mevasini I stakan qaynab turgan suvga solib. horak stakandan kuniga 3—4 marta) ichni yumshatish uchun beriladi.

Botqoq ledumi o'ti (*Herba Ledi palustris*). Tarkibida ledol saqlaydigan efir movlari. arbutin glikozid, oshlovchi moddalar bor. Damlama shaklida (10—200 ml), bir osh qoshiqdan balg'am ko'chiruvchi dori sifatida beriladi.

Andiz ildizi (*Radix Inulae*). Tarkibida laktonlar, inulin va boshqa moddalarni saqlovchi efir moylari bor. Asosan qaynatma shaklida (10—100 ml) osh qoshiqda balg'am ko'chiradigan dori sifatida benladi.

Qizilmiya ildizi (*Radiz Glyeirrhizae*). Tarkibida glitsirrizin, flavonoidlar, pektinlar. kraxmal va boshqa moddalar saqlaydi. Asosan damlama. qiyom shaklida (15—200 ml) balg'am ko'chiruvchi dori sifatida osh qoshiqda kuniga 3—4 marta ichiladi.

Termopsis o'ti (*Herba Thermopsidis*). Tarkibida termopsis alkaloidi (1 — 1,25%). glikozid. oshlovchi moddalar. askorbin kislota va boshqa moddalar saqlaydi. Balg'am ko'chiradigan dori sifatida damlama shaklida (0.6—180 ml)

bir osh qoshiqdan 2— 4 marta beriladi. Quruq ekstrakt shaklida 0.01—0.05 g dan tabletka holida chiqariladi.

Tarkibida dorivor gulxayri o'tidan olinadigan polisaxaridlar aralashmasi bor. 0.05 g li tabletkalar ko'rinishida ishlab chiqariladi.

Pertussin (*Pertussinum*). Tarkibida sudralib o'suvchi tog'jambul yoki oddiy tog'jambul ekstrakti. kaliy bronud, etil spirti. qand qiyomi bor. Osh yoki choy qoshig'ida kuniga 2— 3 mahal ichiladi.

Yuqorida keltirilgan balg'am ko'chiradigan preparatlardan tashqari, bronxlarning shilimshiq ishlab chiqaruvchi hujayralariga bevosita ta'sir etadigan va ularning faoliyatini zo'raytirib. suyuq balg'am hajmini ko'paytiradigan har xil dori preparatlari ham mavjud. Bularni mukolitik vositalar deb ham yuritiladi.

Atsetilsistein (*Aeethyleysteinum*) balg'amni suyultiradi va uning ajralishini osonlashtiradi. 20%li eritmasi 2—5 ml dan kuniga 3—4 mahal 15—20 daqiqadan hidlanadi (ingalatsiya). 10%li eritmasidan mushaklar orasiga 2 ml yuboriladi.

Bromgeksin (*Bromhexinum*). N-siklogeksil — N-metil- N-(2-amino-3, 5-dinitrobenzil)—ammoniy xlond. Draje holida (0.004—0,008 g) kuniga 2—3 mahal ichiladi.

Natriy benzoat (*Natrii benzoas*). Kukun, eritma va nukstura (aralashma) shaklida balg'am ko'chiradigan dori sifatida buyuriladi.

Kaliy yodid (*Kalii iodidum*). Mukolitik vosita tariqasida, suvdagi 1—3% li eritmasi qo'llaniladi. Boshqa kasalliklarda (qalqonsimon bez. va boshqalar) ham buyurilishi mumkin.

Natriy yodid ham shunday ta'sirga ega va ushbu dozada beriladi.

Novshadil arpabodiyoni tomchilari (*Liquor Ammonii anisatus*). Tarkibida anis (arpabodiyon) moyi. ammiak (novshadil) eritmasi bo'lib, 10—15 tomchidan beriladi. Rakonda 25 ml dan ishlab chiqariladi.

Althaeae 6,0—180 ml D.S. 1 osh qoshiqdan kuniga 3—4 marta ichiladi. Rp: Herbae Thermopsidis 0.01 Natriy hydroearbonatis 0,25 D.t.d. N.10 in tabulettis S. 1 tabletkadan kuniga 3—4 marta ichiladi. *a*

Rp: Pertussini 100 ml

D.S. 1 osh qoshiqdan kuniga 3—4 marta ichiladi. *a*

Rp: Sol Aetyleyeteini 2055—10 ml D.t.d. N. 10 in ampullis S. Midlash uchun.

Rp: Tab. Bromhexini 0,008 N. 20

D.S. 1 tabletkadan kuniga 3—4 marta ichiladi.

Bronxolitiklar: Bularga bronxlar devondagi silliq muskullami bo'shashtiradigan, spazmda bronxlarni kengavtiradigan moddalar kiradi va ular *bronxolitiklar* deyiladi. Bronxolitiklar bronxial astma kasalligida yaxshigina kor qiladi. Ular bu kasallik xurujining oldini oladi va uni bartaraf etadi.

Ma'lumki, bronxlar silliq muskullari parasimpatik va simpatik nervlar orqali boshqariladi. Parasimpatik nervlar mushakda qisqartiruvchi. simpatik nervlar esa aksincha ta'sir ko'rsatadi. Bosh- qacha qilib aytganda, parasimpatik nervga tegishli M- xolinoretseptorlar qo'zg'atilsa, bronxlar torayadi, simpatik nervga tegishli b- adrenoretseptorlar qo'zg'atilsa. bronxlar kengayadi. Shuning uchun bronxial astma xurujida xolinoretseptorlarni bog'lab, parasimpatik nerv ta'siri yo'qotiladi yoki adrenoretseptorlarni qo'zg'atib simpatik nerv faoliyati oshiriladi, natijada bronxlar kengayadi va nafas siqilishi yo'qoladi.

Bronxolitiklarga ta'sir mexanizmi turlicha bo'lgan, bronxlarni kengaytiruvchi preparatlar kiradi. Ular asosan quyidagi guruhlardan iborat:

- p-adrenomimetiklar;
- M-xolinoblokatlar;
- miotrop ta'sirli preparatlar.

P-adrenomimetiklarga izadrin. α - va p- adrenoretseptorlarni qo'zg'atuvchilardan adrenalin, efedrin va boshqalar kiradi.

Izadrin p-adrenoretseptorlarni qo'zg'atib, bronx devoridagi silliq muskullarni bo'shashtiradi va bronxlar kengayadi. Bu ta'sir kasallik tufayli bronxlar torayib qolganda yaqqol namoyon bo'ladi. Izadrin shu bilan birga Pi-adrenoretseptorlarni qo'zg'atib yurak urishini tezlashtiradi. Qon bosimiga deyarli ta'sir etmaydi. Bronxial astma xurujida izadrinni ingalyator yordamida nafas yo'li orqali yuborilganda ancha samarali bo'ladi va boshqa a'zolarga bo'lgan ta'siri uncha bilinmaydi.

Orsiprenalin sulfat bronxlarni kengaytirish ta'siri bo yicha izadringa o'xshaydi. Lekin p-adrenoretseptorlarga ta'siri ko'proq va kor qilishi uzoqroq. Parenteral, enteral va ingalatsiya yo'llari bilan qabul qilinadi.

Salbutamol va fenoterol. Bularning qo'zg'atuvchi ta'siri ko'proq. Ta'sir bronx silliq muskullaridagi p-adrenoretseptorlarga qaratilgan. Shuning uchun p-adrenoretseptorlari mavjud a'zolarga ta'siri kamroq. Liar ingalatsiya yo'li bilan yuboriladi. Tabletkalari ichish uchun beriladi.


Adrenalin bir vaqtda ham α - ham p- adrenoretseptoriarni qo'zg'atadi. Shuning uchun bronxlarni kengaytiradi. yurak urishini tezlashtiradi va boshqalar. Lekin uning bunday ta'siri qisqa muddatli bo'lgani uchun bronxial astma xurujining og'ir kechishida inyeksiya qilinadi.

2.2.Nafas yo'llari yallig'lanishi kasalliklarini davolashda ishlatiladigan kimyoviy dorilar.

Yangi dorivor moddalarni kashf qilish: Davolash va hastalikni oldini olish xususiyatiga ega bo'lgan moddalar dorivor moddalar deyiladi. Dorilar turli yo'llar bilan olinadi: yovvoyi va ekib yetishtiriladigan o'simliklardan (yurak glikozidlari, narkotik analgetiklar), hayvonlarning a'zo va to'qimalaridan (gormonal moddalar,

fermentlar), mikroorganizmlardan (antibiotiklar) va kimyoviy sintez yo'li bilan olinadi.

Yangi dori kashf qilingandan so'ng, u farmokologiya laboratoriyasiga yuboriladi. Bu yerda asosan moddaning asosiy ta'sir mexanizmi, joyi, qancha vaqtgacha ta'sir qilishi aniqlanadi. Dorilarning nojo'ya ta'siri ham o'rganiladi. Dorilarni farmokokinetikasi (sochilishi, o'zgarishi, taqsimlanishi va organizmdan chiqarilishi) o'rganiladi. Dorilarni zaharliligi o'tkir zaharliligi bir marta yuborilganda va surunkali zaharliligi uzoq vaqtgacha qo'llanilganda aniqlanadi. Keyin asosiy ta'siri kasallik paydo qilingan hayvonda o'rganiladi. O'tkazilayotgan tajribalarda yangi dorining ta'siri tibbiyotda qo'llanilayotgan dorilardan ustun ekanligi aniqlansa, modda sog'liqni saqlash vazirligi qoshidagi farmokologiya qo'mitasiga topshiriladi. Agar dori barcha sinovlardan o'tsa farmokologlar dorini klinik tekshirishlardan o'tkazishga ruxsat byeradi. Yanada ishonchli ma'lumot olish uchun sinovlar paytida "platsebo" qo'llaniladi. Platsebo-dorining shakli, tashqi ko'rinishi, hidi, ta'mi, sinovdagi moddaga o'xshash bo'lishi kerak. Faqat platseboda tekshirilayotgan modda bo'lmaydi. Platsebo tekshirilayotgan modda bilan bemorlarga berib turiladi. Bemor qaysi biri dori, qaysi biri platsebo ekanligini bilmaydi. Bunday holat 2 marta ko'zga ko'rinmaydigan nazorat deyiladi. Shunday sinovlar natijasida statistik ma'lumotlar olinadi. Agar sinalgan dori barcha talablarga javob byersa natijalar yana farmokologik qo'mitaga topshiriladi. Keyin bu modda kimyo farmotseftika sanoatiga ishlab chiqarish uchun topshiriladi.

Yangi dori moddalarning laboratoriyadan bemorgacha bosgan yo'li.

Nafas a'zolariga ta'sir etuvchi moddalar.

Nafas a'zolariga ta'sir etuvchi moddalar 6 turga bo'linadi:

- I. Surfactant hosil bo'lishini oshiruvchi moddalar.
- II. Nafas analeptiklari.
- III. Yo'talga qarshi moddalar.
- IV. Balg'am ko'chiruvchi moddalar.
- V. Bronxolitiklar.
- VI. O'pka shishida qo'llanadigan moddalar.

Biz bulardan nafas yo'llarini yallig'lanishi kasalliklarida ko'proq qo'llaniladigan yo'tal qoldiruvchi, balg'am ko'chiruvchi va bronxolitiklarga to'xtalib o'tamiz.

Yo'talga qarshi moddalar. Bu moddalar ta'sir mexanizmga ko'ra 2 turga bo'linadi: yo'tal qoldiruvchi narkotik moddalar va yo'tal qoldiruvchi narkotik bo'lmagan moddalar.

Yo'tal qoldiruvchi narkotik moddalar: kodein, etilmorfin (dionin)dir. Ular afyundan olinadi, uzunchoq miyada joylashgan yo'tal refleksi markaziy qismiga tinchlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi. Bu moddalar ko'pincha mikroorganizmlar bilan bog'liq bo'lmagan kasallik holatlarida holdan to'ydiradigan, quruq yo'talni qoldirish uchun qo'llaniladi. Markaziy nerv sistemasiga ta'sir qilishi tufayli ular yo'talga qarshi narkotik moddalar deb ataladi. Uzoq vaqt mobaynida qo'llanganda kodein va dioninga tobelik paydo bo'ladi, shuning uchun bu moddalarni yosh bolalarga (ikki yoshgacha) qo'llanish man etiladi.

Yo'tal qoldiruvchi narkotik bo'lmagan moddalar: libeksin, glausin, tusupreks. Ular yuqori nafas yo'llari shilliq qavatiga, ya'ni yo'tal refleksining periferik (chetda joylashgan) qismiga, bronxlarga anestetik ta'sir ko'rsatadi, ularni kengaytiradi, impulslarining yo'tal refleksining markaziy qismiga o'tishga to'sqinlik qiladi, shu bilan birga bevosita yo'tal refleksining markaziy qismiga tinchlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi. Lekin kodein dioninga o'xshab tabletka holida qilmaydi shuning uchun, libeksin

tusupres yosh bolalarda ham qo'llanish mumkin, glautsin esa 2 yoshgacha bo'lgan bolalarga qo'llanmaydi [11].

Balg'am ko'chiruvchi moddalar. Balg'am ko'chruv moddalar nafas yo'llari yallig'langahda qo'llanadi, ular shiliq bezlari sekresiyasini oshiradi, balg'amni suyiltiradi, suyiltirilgan balg'am ko'chishini enigillashtiradi, nafas yo'lida osonroq o'tadi, Bu moddalar bronxlarning kipriksimon epiteli tebranuchanligini oshirib, bronxlar peristaltikasini oshiradi. Shu bilan birga suyiltirilgan balg'am joylarda yalig'langan bronxlar shilliq qavatini o'rab olish, yani yalig'lanish jarayonini kamaytirish xususiyatiga ega.

Ta'sir mexanizimiga ko'ra balg'am ko'chiruvchi moddalar 3 turga bolinadi:

- 1.Reflektovchi ta'sir ko'rsatuvchi moddalar.
- 2.Bevosita ta'sir ko'rsatuvchi moddalar.
- 3.Mukaltitkimodlar.

Reflektovchi ta'sir ko'rsatuvchi moddalar qatoriga o'simliklar: ipekakuana ildizi, termopsis o'ti, gulhayri ildizi (ularning damlamasi va ekstrakti qo'llanadi); mukaltin, ko'krak eliksiri kiritiladi. Bu moddalar ichilganda oshqozon va un ikki barmoq ichak shilliq qavatini qo'zg'atib, impulslarning reflektovchi afferent yo'l bilan markazga, u erdan efferent impulslarning bronx va bronxial bezlariga o'tishiga ta'sir ko'rsatadi. Natijada bronxial sekretsiyasi, peristaltikasi hamda epiteliy kiprikchalarining tebranuchanligi oshadi. Shu moddalar koratid yo'yda joylashgan reseptorlar orqali ham reflektovchi ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu moddalarning yuqori miqdori qayt qildiradi, lekin qayt qildirish uchun ular qo'llanmaydi, chunki bu moddalar uzoq vaqitgacha ko'ngilni aynitib turadi, keyin qayt qilish boshlanadi.

Bevosita ta'sir ko'rsatuvchi moddalar: kaliy yo'dit, natriy yo'dit, natriy bikarbonat, o'simliklardan-arpabadiyon hamda novshadil-arpabadiyon tomchilaridir.Ular qonga so'rilgandan keyin bevosita bronx shilliq qavatiga, ularning bezlariga ta'sir ko'rsatib, balg'am ko'chishini yaxshilaydi. Bulardan natriy va kaliy

yo'did, natriy bikarbonat ingalyasiya yo'li bilan qo'llangan-da xam ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Mukkolitik moddalar: tripsin, ximotripsin, dezoksiribonukleaza, bromgeksin. bular asosan ingalyasiya yo'li bilan qo'llanib, balg'amdagi oqsil birikmalarini parchalaydi, uning yopishqoqli-gini kamaytiradi, mukolitik xamda ozroq bo'lsa xam yo'tal qoldiruvchi xususiyati bor.

Balg'am ko'chiruvchi moddalar ko'proq bolalar amaliyotida qo'llanadi, bularga murakkab retseplar yoziladi, xar hil ta'sir mexanizmga fizik-kimyoviy xususiyatlarga ega moddalar birga yozilib, miksaturalar shaklida qo'llanadi. Balg'am ko'chiruvchi moddalar yo'tal dorilari bilan birga qo'llanadi, chunkli yo'tal kamaysa, balg'am to'planishiga, suyilishiga fursat bo'lib, uning ko'chishi osonlashadi. Balg'am ko'chivchilar boshqa moddalar bilan birga zotiljam, bronxoektaziya, bronxial astma va boshqa kasalliklarni davolashda qo'llanishi mumkin.

Bronxolitiklar. Bronx mushaklarini bo'shashtiradigan, kengay-tiradigan, bronx bezlari sekretsijasini kamaytiradigan moddalar bronxolitiklar deb ataladi. Bu moddalarning kimyoviy tuzilishi va ta'sir mexanizmi turlicha. Bronxolitiklar sifatida M-xolinolitik, adrenomimetik, miotrop va boshqa moddalar [12].


Sefazalinning natriyli tuzi

Ta'sir qiluvchi modda(XPN):Sefazalin (natriyli tuzi xolida).
Qo'llanishi:

Preparatga sezgir bo'lgan mikroorganizmlar chaqirgan infeksiya-yallig'lanish kasalliklarini davolash shu jumladan: yuqori va quyi nafas yo'llarini, siydik va o't chiqarish yo'llari , kichik chanoq a'zolari, teri va yumshoq to'qimalar , suyaklar va bog'imlarni kasalliklari;endokardit, sepsis, peritonit, o'rta otit, osteomelit, mastit;jarohatlar, kuyishlar va operatsiyadan keyingi infektsiyalar; sifilis va gonoreya.Bundan tashqari, preparat xirurgik infektsiyalarni oldini olish uchun operatsiyadan oldingi va keyingi davrlarda qo'llanadi.

Nojo'ya ta'siri. Boshqa sefolosporin antibiotiklari kabi preparat allergik reaksiyalarni chiqarishi mumkin. Bu hollarda allergiyaga qarshi preparatlar buyriladi. Leykopeniya, zozinofiliya, neytropeniya, qusish, ko'ngil aynishi kuzatilishi mumkin. Mushak ichiga yuborilgan joyda og'riq paydo bo'lishi mumkin [13].

Sefazolinning natriyli tuzi



[3-(5- metil-1,3,4-tialazolin-2-tiometil)-7-(1- tetrazolil-atsetamid)-3-sefem-4] korbonat kislotaning natriyli tuzi

OPTIPRIM-480


Tarkibi: Har bir tabletka quydagilarni saqlaydi: Faol moddalar:

Trimetoprim 0.08 g sulfametoksazol 0.4 g. Har 5 ml suspenziya quyidagilarni saqlaydi Faol moddalar: trimetoprim 0.04 g. sulfametoksazol 0.2 g

Qo'llanishi: Yuqori va quyi nafas yo'llari, buyrak, siydik xaydovchi yo'llar, oshqozon-ichak yo'llari (sh jumladan terlama, pratif va vabo) infeksiyalari, prastata bezini yallig'lanishi, yaralar infeksiyalari va boshqa preparatga sezgir qo'z-g'atuvchilar bilan chaqirilgan infeksiyalar.


Nojoya ta'siri: Ko'ngil aynishi, qusish, allergik reaksiyalar (teri toshmasi, Kvinke shishi), leykopeniya, neytropeniya, trombositopeniya kuzatilishi mumkin. Kamdan-kam xollarda diareya, gilossit, agranulositoz, megaloblast anemiya, purpura, psevdomembranoz kolit, Stivens-Djonson sindromi, Layell sindromi kuzatiladi. Glyukoza-6-fosfatdigidrogenoza tanqisligi mavjud bemorlarda eritrosit gemolizi kuzatiladi.

optiprim-480



Trimetropin

2,4-diamino-5-(3,4,5-trimetoksibenzil)-
primidin



Sulfametoksazol

3-(para-aminobenzolsulfido)-5-metilizoksazol

Nolgripp tabletkalari

Tarkibi: Har bir qobiqsiz tabletka saqlaydi: Parasetamol 500 mg, Fenilefrin gidro-
xloridi B.F.5mg KofeinB.F. 30 mg, xlorfeneramin maleat B.F.2mg


Ta'rifi: Nolgripp tabletkalari parasetamol, fenilefrin gidroxloridi, kofein va
xlorfeniramin maleatdan iborat.Paratsetamol og'riqni qoldiruvchi va isitmani
tushiruvchi, Fenilefrin gidroxlorid dimlanishga qarshi vosita, xlorfeniramin
allergiyaga qarshi, kofein xlorfeniramin sababli kelib chiqadigan uyquchanlikni
oldini oladi va paratsetamol effektin kuchaytiradi.

Ko'rsatilishi: Grippni eng'il va urtacha shakli, allerg'iya rinit, burun yo'llari va
bo'shliqlarini berkilishini, burundan oqishini, aksi urishi, burun yoki tomoqni
qichishini, qichimali yoshi oqishi, bosh og'rig'i, tana og'rig'i ,shamollash va gripp
bilan bo'ladigan isitman iyo'qotish.


Nojo'ya ta'sirlari: Nolgrippni nojo'ya ta'rlari odatda kuchsiz shaklga ega va
ko'ngil aynash, qayt qilish, bosh og'rigi, pankreatit, teri toshmasi va boshqa

allergik reaksiyalar kuzatilgan. Nojo'ya ta'sirlari preparat qabul qilinishi to'xtatilgandan keyin yo'qoladi. Nojo'ya ta'sirlari yo'qolmasa shifokorga murojaat qiling.


NOLGRIPP



Parasetamol



Kofein



Xlorfeniramin maltat

Korflam: Ta'sir etuvchi modda parasetamol va ibuprofen.

Qo'llanilishi: Har xil sababga ega bo'lgan kuchsiz va o'rta kuchdagi og'riq sindromi [jumladan, bosh va tish og'rig'i, jarroxlikdan so'nggi og'riq, bel og'rig'i, osteoartroz, umurtqa osteoxondrozi, ankiloqli spondilit, paylarni cho'zilishi, suyaklarni chiqishi va sinishi, umurtqa orasidagi disklarni shikaslanishi, podagra, psoriatik artropatiyalar, revmatoid artrit, sinovit, nevralfiyalar va mialgiyalar, fibrozitlar va tendo va dinitlardagi og'riqlar] yuqumli yallig'lanish kasalliklaridagi isitmalash.



Nojo'ya ta'sirlar: Oshqozon-ichak yo'lida; ko'ngil aynishi, ishtaxani buzilishi, qayd qilish, epigastral soxadagi noxushlik, ich ketishi, meteorizm, oshqozon-ichak yo'lini eroziyal-yarali shikastlanishi, ba'zida qon ketishi.

Markaziy nerv tizimida; bosh aylanishi, bosh og'rishi, uyqu buzilish, pare-steziya, qaltirash, tirishish, tutqanoq va parkinsonizmni kuchayishi, mialgiya, holsizlik, emosional lobillik, quloq shang'illashi, ko'zning xiralashishi, ea-xushni chigallashishi.

Yurak-qon tomirida; turg'un yurak yetishmovchiligi, arterial qon bosimning pasayishi yoki ko'tarilishi, aritmiya, taxikardiya, vena tomirlar-ini kengayishi. Buyrak va peshob ajratuv tomonidan; interstisial nefrit, nefrotik sindrom, buyrak yetishmovchiligi, gematuriya, sistit, peshob yo'li infeksiyasi, azot-emiya, nikturiya, proteinuriya, poliuriya, dizuriya, tez-tez siyish, oliguriya, anuriya. Qon yaratilish tizimi tomonidan; ayrim hollarda leykopeniya, anemiya, trombositopiniya, agranulositoz, metgemoglobinemiya. Teri tomonidan; toshma, epitema, eshakyem, terining po'st tashlashi, pufakchali toshmalar, po'st tashlovchi dermatit.

O'tata'sirchanlik; astma anafilaksiya, nafas olishning keskin buzilishi, qon bosimining keskin pasayishi natijasida karaxtlikga o'shash xolat yuzaga kelishi, angionevratik shish, nafas olishni qiyinlashishi, angiit.

KORFLAM



1-2-(4-izobutilfenil)-propion kislota

KALSIY GLYUKANAT-GT 10% 5ML VA 10 ML

Farmakalogik tasiri: Kalsiy ionlari nerv impulslarini o'tkazilishini taminlash uchun, skelet va silliq mushaklarini qisqarishi uchun, yurak mushaklarining faoliyati, suyak to'qimalari shakillanish uchun, qon ivishi uchun va boshqa a'zolar va tizimlarini normal faoliyati uchun kerak.


Qo'llanilishi: Kalsiy glyukanat-GT quyidagi patologik holatlarda qo'llanadi; tetaniya yoki spazmofiliya bilan kechadigan qalqonsimon bezi oldi bezlarining yetishmovchiligidagi; organizmdan kalsiyning chiqarilishi oshganda; allergik kasalliklarda; gemmoragik vaskulit, nurlanish kasalliklarida tomirlarning

o'kazuvchanligini kamaytiruvchi vosita sifatida; teri kasalliklarida[qichishish, ekzema, psoriaz]; parenxemetoz hepatitda, jigarning zaxarli shikastanishlarida, nefritda, eklampisiyada; o'pkadan, meda-ichak yo'llaridan, burundan, bachadondan qon ketishida qon ketishini to'xtatuvchi vosita sifatida; magniy tuzlari,shovul kislotasi, ftor kislotasining eruvchan tuzlar bilan zaxarlanganda ziddi zaxar sifatida; tug'ish faoliyatini rag'batlantirish uchun boshqa preparatlar bilan birga qo'llanadi. Do'zalari va qo'llash usuli;

Vena ichiga asta-sekin yuboriladi va ichga qabul qilishga buyuriladi.Vena ichiga yuborish uchun kattalarga 10 foiz eritmadan 5-10 ml kunora yoki xar ikki kunda, ko'rsatishiga qarab yuboriladi. Bolalarga yoshiga qarab venaga 10 foiz eritmadan 1 dan 5ml gacha xar 2-3 kunda yuboriladi.

Nojo'ya ta'sirlari: Kam hollarda preparatni qo'llashda ko'ngil aynishi, qusish, ich ketishi, pulsni sekinlashishi paydo bo'lish mumkin, ular o'z-o'zidan o'tib ketadi.

Kalsiy glyukonat



Immunomodulin

Tarkibi: Immunomodulin 0,1 g, natriy xloridi 9 g, ineksiya uchun suv 1 litrgacha.

Qo'llanishi: Har xil kasalliklar va holatlarida, shu jumladan gripp, virusli hepatitlar, kollanegnozlar (revmatizm, revmatoidlarartrit, tizimli sklerodermiya), yiringli-septik kasalliklar (destruktiv pnevmoniya, osteomielit, saramas yallig'lanishi), surunkali bronxit va pnevmoniya, pielonefrit, prostit, qandli diabet, gastroduodenit, o'nikkibarmoq ichak yara kasalligi, teri va tanosil kasalliklari bo'lgan bemorlarda,

o'smalarni kimyo va nur davosida, xomiladorlikda, vaktsinasiya qilinganlarda, xamda ekalogik noqulay sharoitlarda yashovchi va ishlovchilarda immun tizimining buzilishlarini oldini olish, to'g'rilash va rag'batlantirish chun qo'llanadi.

Qo'llash usuli va dozalari: Preparatni bolalar va kattalarga asosiy davolash fonida 5-7 ineksiya kurslari, xar kuni bir ineksiyadan yoki 1-3 kunda (9-28 kun), yaxshisi kechqurun 1,0-1,5 mkg/kg tana vazniga sutkali dozada teri ostiga yoki mushak ichiga buyrish tavsiya qilinadi. Surunkali kasalliklarda qo'shimcha tutib turuvchi kurslar bir ineksiyadan 2-7 kun oralig'ida 2-16 xafta davomida o'tkaziladi. Preparat bolalarga tana vazni xisobidan: 10 kg gacha -0,1 ml; 10-30 kg -0,3 ml; 30-50 kg -0,5ml; 50 kg va undan yuqoriga -1,0 ml dan yuboriladi.

Nojo'ya ta'sirlari: Kuzatilmagan.

Brifeseptol: Tarkibi: 1 tabletkada faol modda sifatida sulfametaksozol-0,1 g va tiretoprim-0,2 g (0,12 dozalgida):sulfametaksozol-0,4 g va trimetoprim -0,08 g (0,48 dozalgida).

Yordamchi moddalar: kartoshkali kraxmal, talk, polivenilpirrolidon yoki polivinilli spirt, magniy stearati, prapilinglikol, Kollidan CI.


Qo'llanilishi: Preparat nafas yollari infeksiyalarini (bronxit, pnevmoniya, sinusit), meningit, bosh miya, siydik yollari va jinsiy a'zolar absessi (pielonefrit, uretrit, salpingit, prstatit va x.k.) shu jumladan gonariya qo'zg'atuvchilari orqali chaqirilganlari ham, oshqozon-ichak yo'lida (dizenteriya, xolera, terlama, parotif, ich ketish), xamda teri va yumshoq to'qima (pioder-miya, furunkulez va b.) infeksiyalarini davolashda qo'llanadi.

Nojo'ya ta'sirlari: Odatda preparat yaxshi o'zlashtiriladi. Ba'zi hollarda quyidagilar kuzatiladi: Asab tizimi tomonidan: aseptik meningit, tremor, preferik nervitlar. Nafas tizimi tomonidan: bronxospazm, o'pka infiltratlari, Hazm tizimi tomonidan: anoreksiya, gastrit, glossit, stomatit, "jigar" transaminazalar faolligini oshishi, gepatonekroz. Siydik ajratish tizimi tomonidan: poliuriya, buyrak

faoliyatining buzilishi, kiristalluriya, gematuriya, mochevina miqdorini oshishi, giperkreatinin-emiya, oligouriya va anuriyali toksik nefropatiya. Tayanch harakat apparati tizimi tomonidan: artralgiya, mialgiya, polimorfli eritema, Stivens- Djonson sindromi.

Allergik reaksiyalar: qichishish, fotosensibilizatsiya, toshma, allergik miokardit isitma, Kvinke shishi, skleralarni qizarishi. Qon yaratish tizimi tomonidan: Leykopeniya, neytropeniya, agranulotsitoz, trombositopeniya, megaloblastik anemiya. Qolganlari: gipoglikemiya.

Barcha tepada ko'rsatilgan holatlar kuchsiz namoyon bo'ladi va preparatni qo'llash to'xtatilganda o'z-o'zidan o'tib ketadi.



Apdil-total

Tarkibi: Qobiqsiz har bir tabletka saqlaydi:

Parasetamol B.F.	500mg
Kofein B.F.	30mg
Xlorfeneramin maleatB.F.	2mg
Rangi:to'qqizil-qizil	4R




Ta'rifi: Apdil-total partsetamol, kofein va xlorfeniramin maleat majmuasidan

iborat.

Ko'rsatilishi: Sovqotishish, rinit, sinusit va isitma tuygusini muntazam bo' shishishi.

Nojo'ya ta'sirlari: Paratsetmol nojo'ya ta'sirlari kam aniqlanadi va odatda kuchsiz bo'ladi, lekin shunga qaramasdan trombositopeniya, leykositopeniya, pansitopeniya, neyrotropeniya va agrinulisitoz kabi gematologik reaksiyalar aniqlangan. Shuningdek, teri toshmalari va boshqa o'ta yuqori sezuvchanlik reaksiyalarini paydo bo'lgan xollari bo'lgan [14].

Apdil- total



Xlorfeniramin maltat


Siprinol

Tarkibi. Mag'zi: Faol modda: siprofloksatsin, siprofloksatsin gidroxlorigi monogidratini ko'rinishida 291 mg va 582 mg (bu 250 mg va 500 mg siprofloksatsinga muvofiq keladi).

Yordamchi moddalar: mikrokristallik selluloza, karboksimetilkraxmal natriy (A turi), povidon, natriy kroskarmelloza, suvsiz kolloid kremniy dioksidi, magniy stearati,

Qobig'i: gipromelloza, talk, titan dioksidi E171, propilenglikol.

Qo'llanilishi. Siprofloksatsinga sezgir mikroorganizmlar chiqargan infeksiyon yallig'lanish kasalliklari: -nafas yo'llarining: pnevmaniya (pnevmonokokkli pnevmoniyadan tashqari), o'tkir bronxit va surunkali bronxitning zo'rayishi. Bronxoekstatik kasallik, mukovistsidoz. – quloq, burun va tomoqning: o'tkir o'rta otit, sinusit, mastoidit [15].



Oksampitsillin – GT 0,5g

Tarkibi: Har bir flokon saqlaydi:


Ampitsillinga ekvivalent ampitsillin natriy 0,3335g.

Oksatsillinga ekvivalent oksatsillin natriy 0,1665g.


Qo'llanilishi. Nafas yo'llarining infeksiyalarida (bronxit, pnevmoniyalar vaboshqalar), angina, xolangit, xolatsistit, pielit, pielonefrit, sistit, infitsiyalangan jaroxatlar, tyeri infeksiyalari va shunga o'xshashlarda qo'llanadi. Ayniqsa kasallikni og'ir kechuvchi hollarda (sepsis, endokardit) aniqlanmagan antibiotikogrammada va ko'zg'atuvchi ajratib olinmaganida, benzilpenitsillinga sezgir va sezgir bo'lmagan stafilokokklar va grammanfiy Bakteriyalar chaqirgan aralash infeksiyalarda, kuyish kasalligida, buyrak infeksiyalarida qo'llanadi.

Nojo'ya ta'siri. Bo'lishi mumkin bo'lgan nojo'ya samaralari: parentaral yuborilganida – in'ektsiya qilingan joyda og'riq va allyergik reaksiyalar, kam hollarda- anafilaktik shok. Agar zarurati bo'lsa desensibilizatsiyalovchi vosita buyuriladi [16].

Ampitsillinning natriyli tuzi



Oksatsillinning natriyli tuzi



Siproks


Tarkibi. Mag'zi: Faol modda: siprofloksatsin (laktat ko'rinishida) 291 mg va 582 mg (bu 250 mg va 500 mg siprofloksatsinga muvofiq keladi).

Yordamchi moddalar: mikrokristallik selluloza, karboksimetilkraxmal natriy (A turi), povidon, natriy kroskarmelloza, suvsiz kolloid kremniy dioksidi, magniy stearati,

Qobig'i: gipromelloza, talk, titan dioksidi E171, propilenglikol.

Qo'llanilishi. Siprofloksatsinga sezgir mikroorganizmlar chiqargan infeksiyon yallig'lanish kasalliklari: -nafas yo'llarining: pnevmaniya (pnevmokokkli pnevmoniyadan tashqari), o'tkir bronxit va surunkali bronxitning zo'rayishi. Bronxoekstatik kasallik, mukovistsidoz. – quloq, burun va tomoqning: o'tkir o'rta otit, sinusit, mastoidit [15].

Siproks



1-Siklopropil-6-ftor-1,4-digidro-4-okso
(1-piperazinil)3-xinolinkarbon kislota

Rinamaks

Ta'sir etuvchi modda(XPN): Atsetaminofen, kofein, fenilefrin gidroxlorigi, xlorfeniramin maleat.

Tarkibi: har bir tabletka 500 mg atsetaminofen, 30 mg kofein (suvsiz), 10 mg fenilefrin gidroxlorigi, 2 mg xlorfeniramin maleati saqlaydi.

Qo'llanilishi. Tumov, burin bitishi(shilliq qavatning shishishi), bosh og'rig'i va haroratni ko'tarilishi bilan kechadigan shamollash kasalliklarida;

Yuqori nafas yo'llarining allergik kasalliklarida;

Burin oldi bo'shliqlarining yallig'lanishida qo'llaniladi.

Nojo'ya ta'sirlari. Preparat jiddiy nojo'ya ta'sirlar chaqirmaydi. Kamdan – kam hollarda: ko'ngil aynishi, yuqori qo'zg'aluvchanlik, uyquvchanlik, shilliq qavatlarni zichlashuvi,(ko'pincha doza oshib ketganida), ko'rishni xralashuvi, hayajonlanish, siyishning qiyinlashuvi va og'rishi, bosh aylanishi, og'iz, burun yoki tomoqni qurishi, bosh og'rishi, ishtaxani pasayishi, yurak urishi, quloqlarning shang'illashi, me'dada noxushlik va og'riq , hamda tyerining allyergik reaksiyalari bo'lishi mumkin [17].

Eritromitsin va oleandomitsin

Eritromitsin va oleandomitsin zotiljam, bronxit, tonzillit, otit sinusit, ko'kyo'tal xastaliklarini davolashda qo'llaniladi.

Nojo'ya ta'sirlari. Ko'ngil aynishi, qusmsh, ich ketishi, qorinda og'riq paydo bo'lishi, venaga yuborilganda flebitlar hosil bo'lishi mumkin [12].

Sefaloridin

Oq rangli kristall kukun. Suvda yaxshi eriydi. Suvli eritmalari yorug'da qoramtirlashadi.


Penitsillinga o'xshash, sefaloridin Bakteriyalarni o'ldiruvchi ta'sirga ega.

Nafas yo'llari, siydik yo'llari va jinsiy organlarning surunkali va o'tkir infektsiyalarida, yumshoq to'qimalarning infektsiyasida, pyerintionitda, jarroxlik

amaliyotidan keyingi infektsiyalarda preparatga ta'sirchan mikroorganizmlar keltirib chiqaradigan infektsiyalarda qo'llaniladi.

Sefaloridin antibiotiklar ta'siriga chidamli stafilokokk infektsiyalarni davolashda yaxshi natija byermoqda, jumladan, stafilokokk pnevmaniyasi, septitsemin, septik endokardit. Preparat mushak ostiga yuboriladi. Ayrim og'ir holatlarda vena orqali beriladi.

Sefalloridin



7-aminosefalosporinislota.


Sefaleksín

Oq rangli kristall kukun, mayin. Suvda eruvchan.

Preparat ko'plab grammusbat va grammanfiy mikroob turlariga qarshi ta'sir kuchiga ega.

Preparat o'tkir va surunkali pielonefritda, sistitda, prostatitda, yuqori nafas yo'llari infektsiyalari (tonzilit, faringit)da, pnevmaniya, bronxopnevmaniya, empima va boshqalarda preparatga ta'sirchan mikroorganizmlar tomonidan chaqirilgan otit, furunkulyoz, gonoreya va boshqa yuqumli kasalliklarda tavsiya etiladi.

Sefakeksin




7-aminosefalosparin kislota

Likorin gidrokslorid


Sarg'ish-oq kukun. Suvda erimaydi, yog'da va spirtda eriydi. O'pka va bronxlarning o'tkir va surunkali yallig'lanishi holatlarida, bronxoekstazda, bronxial astma kasalliklarida va boshqalarda balg'am ko'chiruvchi modda sifatida qo'llaniladi.

Terpin gidrat preparati ta'sir doirasi va qo'llanilishi huddi likorin gidroksloridga o'xshash bo'ladi.

Likarin gidrokslorid



Terpin gidrat



Para-metandiol-1,8.

Norsulfazol natriy


Rangsiz mayin kristall modda. Suvda oson eriydi.

Preparat kimyo tyerapiyada norsulfazolga o'xshash aktiv ta'sir qiladi. Suvli eritmasi faqat ichga emas, balki, parenteral va ko'zga tomizishda ham qo'llaniladi.

Norsulfazol natriy- gemolitik infeksiyalarni chaqiruvchi streptokokk, pnevmokokk, genokokk, stafilokokk kabi mikroorganizmlarga qarshi yaxshi natija bermoqda.

Pnevmaniyada, miningititli yallig'lanishda, stafilokokkli va streptokokkli sepsisda va boshqa infeksiyon kasalliklarda ichga qo'llaniladi.

Norsulfazolning natriyli tuzi




2-(para-Aminobenzolsulfamid)-tiazolnatriy

Sulfazin

Oq rangli kristall kukun. Amalda suvda erimaydi. Spirtida juda oz eriydi. Xlorid kislotada yaxshi eriydi.

Sulfazin plazma bilan oz miqdorda bog'lanib, organizmga asta-sekin ta'sir ko'rsatadi. Qo'llanilishi bo'yicha norsulfazolga o'xshaydi. Sulfazin boshqa sulfanilamid preparatlar bilan birga qo'llaniladi.

Sulfazin




2-(para-Aminobenzolsulfamido)-primidin.

Sulfadimezin

Oq yoki sarg'ish rangli mayin kukun. Amalda suvda erimay, engil erituvchilarda, mineral kislotalarda eriydi.

Preparat infeksiyalarni chaqiruvchi pnevmokokk, streptokokk, meningokokk infeksiyalarga qarshi, ichak tayoqchasi va boshqa mikroblarga qarshi qo'llaniladi. Sulfadimezin boshqa sulfanilamidli preparatlarga o'xshab antibiotiklar bilan qo'llaniladi.

Sulfadimezin



2-(para-Aminobenzolsulfamido)-4,6-dimidol.


Libeksin

Oq yoki oqish kristall kukun. Yo'talga qarshi sintetik preparat. Yo'talga qarshi aktivligi kodeinga teng. Nafas yo'llariga nojo'ya ta'sir ko'rsatmaydi. Stress holatga olib kelmaydi. Spazmolitik aktivlikka ega. Surunkali bronxidlarda bo'shashtiruvchi ta'sir ko'rsatadi.

Preparat yo'talga qarshi, yuqori nafas yo'llari kasalliklarida, o'tkir va surunkali bronxidlarda, bronxopnevmaniyada, bronxial astma va boshqalarda qo'llaniladi.

Preparat bronxospazm va bronxografiyada atropin bilan birgalikda qo'llaniladi.

Libeksin



3-(β β-difenilen) -5- β(-piperidinoetil)-1,2,3 -oksidadzola gidroxlolid


Naftizin nitrat

Oq yoki sarg'ish rangli kukun. Suvda qiyin eriydi, spirtida yaxshi eriydi.


Preparat rinitning o'tkir turlarilarida, burun bitishida, burun bo'shlig'ining yallig'lanishida, rinoskopiya, burundan qon ketishida, allyergik konyuktivlarda va boshqa allergik kasalliklarda qo'llaniladi.

Naftizin yallig'lanishga qarshi preparatlar bilan birga surunkali rinitda qo'llanilishiga tavsiya etilmaydi.

Naftizin va galazolin rinit, laringit, sinusit, burun bo'shlig'i yallig'lanishida, burun bitishida, tomoqning yallig'lanishida qo'llaniladi. Bu preparatlarning spre, aerosol, tomchi holatlarda ishlab chiqariladi.



2-(a-naftilmetil)-imidazolin nitrat.



2-(4'-tert-Butil-2',6'-dimetilbenzil)imidazolin gidroxlid.

2.3. Nafas yo'llari yallig'lanishi kasalliklarini davolashda ishlatiladigan tabiiy dorivor moddalar.

Doktor kashel sirop

(doctor kashel syrup)

Tarkibi : muletxi (Glycyrrhiza glabra) suvli ekstrakti	48,00mg
Vasaka (Adhatodavasica)suvli ekstrakti	26,00mg
Tulasa (Ocimum sanctum)suvli ekstrakti	15,00mg
Suntxi (Zingiber officinale)suvli ekstrakti	4,80 mg
Pippali (Piper longum)suvli ekstrakti	9,80 mg
Pudina (Mentha piperatta)suvli ekstrakti	5,00 mg
Shirish (Albizzia lebbeck)suvli ekstrakti	15,00 mg
Pushkarmul (Inula racemosa)suvli ekstrakti	15,00 mg
Xaridra (Cucuma longa)suvli ekstrakti	10,00 mg

Ta'rifi. Ushbu farmatsevtik preparat to'qqiz dorivor o'simliklarni suvli ekstraktlarini saqlaydi va balg'am ko'chiruvchi, mukalitik, bronxlarni kengaytiruvchi, hamda antiallergik va shamollashga qarshi ta'sirga ega. U nafas yo'llarini infeksiyalarida, bronxitda, bronxial astmada va allergik respirator kasalliklarida yo'talni engillashtirish uchun ko'rsatilgan. U alkohol saqlamaydi va sedativ samara chaqirmaydi.

Qo'llanilishi. Doktor kashel siropi nafas yo'llarini infeksiyalarida, bronxitda, bronxial astmada va allergik respirator kasalliklarida yo'tal va shamollash belgilarini engillashtirish uchun ko'rsatilgan.

Nojo'ya ta'siri. Tavsiya etilgan terapevtik dozalarda Doktor Kashel siropi nojo'ya ta'sirlar chaqirmaydi.

Shamollash kasalliklariga davo qilishda bir qancha shifobaxsh o'simliklardan foydalaniladi. Ularning umumiy soni 50 dan ortib ketadi. Ba'zilar balg'am ko'chiruvchi, yo'talni qoldiruvchi va ko'krakni yumshatuvchi xossaga ega bo'lsa, boshqalari Bakteriyalarga qarshi, burushtiruvchi ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli ular

og'iz-tomoqni chayish uchun yoki terlatuvchi shifobaxsh vosita sifatida qo'llaniladi. Ushbu o'simliklarning kimyoviy tarkibi turlicha, shuning uchun ham ular organizmga har xil ta'sir ko'rsatishi mumkin. Lekin ularning hammasi ham shamollash kasalliklariga davo bo'ladi. Quyida mazkur o'simliklar, ularning ishlatilishi to'g'risida ma'lumotlar keltiramiz.

Tibbiyot andiz turlarining asosan yer ostki qismlaridan foydalanadi. Andiz antiseptik, yallig'lanishga qarshi va organizmdan gijjalarni haydash xususiyatiga ega. Andiz qadimdan tabobatda ishlatilib kelingan dorivor vosita bo'lib, Ibn Sino uni o'z vaqtida turli kasalliklarda, jumladan ko'krakni tozalovchi va balg'am ko'chiruvchi vosita sifatida qo'llagan.

Xalq tabobatida hozir ham ildizpoya va ildizdan tayyorlangan qaynatma o'pka sili va nafas yo'llarining shamollash kasalliklarida balg'am ko'chiruvchi, isitmada haroratni pasaytiruvchi dori sifatida ishlatadi..

Tibbiyotda andiz ildizpoyasi va ildiz qaynatmasi nafas yo'llarining yallig'lanish kasalliklarida balg'am ko'chiruvchi dori sifatida hamda me'da-ichak kasalliklariga davo qilish uchun qo'llaniladi.

Andiz ildizpoyasi va ildizidan qaynatma tayyorlash uchun biror og'zi yopiladigan idishga bir litr (yoki bir stakan) suv quyiladi, ustiga maydalangan ildizpoya bilan ildiz aralashmasidan 100gr (yoki bir stakan suvga 20 gr) solib, bir oz qaynatiladi va 4 soat davomida damlab qo'yiladi. So'ngra dokada suziladi.

Yo'talni qoldirish va balg'am ko'chiruvchi vosita sifatida kuniga 3-4 mahaml ovqatdan 20 daqiqa oldin damlamadan bir osh qoshiqdan iste'mol qilinadi.

Anjir – balandligi 8 metrgacha bo'ladigan mevali daraxt.

Tabobat va tibbiyot anjirning meva va barglaridan shifobaxsh vosita sifatida foydalanadi. To'liq pishib etilgan mevasi terib olinadi va ho'lligida yoki quritib imte'mol qilinadi. Barglari meva yetilishi davrida yig'iladi, soya yerda quritiladi va dorivor preparat olish uchun dori tayyorlash zavodlariga yuboriladi.

Abu Ali Ibn Sino anjir mevasini balg'am ko'chiruvchi va yo'tal qoldiruvchi

vosita sifatida qo'llagan. Balg'am ko'chiruvchi dori sifatida anjir mevasini yeyish, yo'tal qoldirish uchun mevani sutda qaynatib, iste'mol qilishni buyurgan.

Tabobatda anjir mevasi va uning damlamasi dori sifatida yo'talni to'xtatish va ko'kyo'talni davolash uchun ichishga buyuriladi. Tomoq shamollaganda issiq damlama bilan tomoq chayiladi.

Anor – balandigi 1,5-2 metr bo'lgan buta. Tibbiyotda anorning mevasi, meva po'sti hamda poyasi, yirik shoxlari va ildiz po'tlog'i ishlatiladi. Po'stlog'i tarkibida alkaloidlar, oshlovchi moddalar, smola va bo'yoq moddalar, mevasida organik kislotalar, qandlar, vitaminlar, C vitamini bor.

Anor xalq tabobatida qadimgi shifobaxsh vositalardan hisoblanadi. Abu Ali Ibn Sino meva po'stini qon tupurish, milkdan qon oqishini to'xtatish, tishni mustahkamlash uchun hamda me'da kasalliklari (ich ketish, qon aralash ich ketish), yaralan va boshqa kasalliklarni davolashda, shuningdek siydik haydovchi vosita sifatida ishlatgan.

Xalq tabobatida hozir ham meva po'stini qaynatmasi qon tupurish va milkdan qon oqishini to'xtatish, ich ketish, dizentyeriya va teri kasalliklarini (qo'tirni) davolash, yo'talni qoldirish, siydik va gijja haydash uchun ishlatadi. Meva shirasi singa kasalligiga davo qilinadi va ishtaha ochish uchun iste'mol qilanadi.

Anor mevasining po'stidan qaynatma tayyorlash uchun og'zi yopiladigan idishga bir stakan suv quyiladi, ustiga bir choy qoshiqda maydalangan meva po'stidan solib, bir oz qaynatiladi va ikki soat davomida damlab qo'yiladi. So'ngra dokada suziladi. Bu qaynatma yuqorida aytib o'tilgan kasalliklarga davo qilish uchun kuniga 3 mahal ovqatdan oldin ichiladi. Nafas yo'llari shamollaganda, tomoq og'riganda, og'iz shilliq pardasi yallig'langanda (gingivit va stomatit), milkdan qon oqqanda og'iz va tomoq shu qaynatma bilan chayiladi.

Anor mevasining suvi esa bolalar uchun yaxshi harorat tushuruvchi vazifasini bajaradi.

Teshik dalachoy. Tibbiyotda dalachoyning yer ustki qismidan foydalaniladi. O'simlik gullagan vaqtda uning yer ustki qismi uchidan 15-20 sm uzunlikda o'rib olinadi va soya yerda quritiladi. So'ngra yanchib, g'alvirda elab olinadi. Yirik poyalar tashlab yuboriladi.

Ilmiy tibbiyotda dalachoy yer ustki qismining dorivor preparatlari (damlama, suyuq ekstrakt) og'ish bo'shlig'ining yallig'lanish kasalliklarida (gingivit, stomatit) va tomoq yallig'lanishida og'iz va tomoqni chayish uchun ham ishlatiladi.

Dalachoy yer ustki qismi og'iz va tomoqni chayish, me'da-ichak va boshqa kasalliklarni davolash uchun ishlatiladigan turli yig'ma-choylar tarkibiga kiradi.

Tibbiyotda etmakning ikki turidan: gipsofillasimon etmak va ro'vaksimon etmaklardan dorivor vosita sifatida foydalaniladi. Tabobatda etmak turlarining ildizidan foydalaniladi.

Xalq tabobatida etmak ildizining qaynatmasi nafas yo'llarining yallig'lanishi va boshqa kasallarda balg'am ko'chiruvchi dori sifatida qo'llaniladi.

Ildizi tarkibida ko'p miqdorda saponin mavjud.

Etmak ildizidan qaynatma tayyorlash uchun og'zi yopiladigan idishga bir stakan qaynab turgan suv quyib, ustiga maydalangan ildizdan 6 gr solinadi, idish qopqog'ini yopib, qaynab turgan boshqa idishdagi suvga 30 daqiqa solib qo'yiladi. So'ngra uni sovutib, dokada suziladi. Balg'am ko'chiruvchi vosita sifatida kuniga 3-5 marta ovqatdan so'ng yarim stakandan iste'mol qilinadi

Tibbiyotda jo'kaning ikki turidan: yuraksimon (mayda barg) jo'ka va yassi (yirik) barg jo'kalardan dorivor vosita sifatida foydalaniladi.

Jo'kaning gul to'plami dorivor vosita sifatida ishlatiladi. O'simlik gullaganda gulto'plami guloldi bargchalari bilan birga qirqib olidani va soya yerda quritiladi.

Xalq tabobati jo'ka gulidan tayyorlangan damlama (issiq hoida) turli kasalliklarida tyerlatuvchi dori sifatida hamda yo'talni davolash va tomoq og'riganda uni chayish uchun ishlatiladi. Jo'ka gulidan damlama tayyorlash uchun biror og'zi yopiladigan idishga bir stakan qaynab turgan suv quyiladi va ustiga maydalangan

guldan bir osh qoshiqdan solib, yarim soat damlanadi. So'ngra dokada suziladi. Terlatuvchi vosita sifatida damlamadan kuniga 2-3 mahal ovqatdan oldin yarim stakandan ichiladi va tomoq og'riganda issiq damlama bilan tomoq chayiladi.

Ilmiy tibbiyotda jo'ka gulining damlamasini turli shamollash kasalliklarida terlatuvchi dori sifatida iste'mol qilish buyuriladi. Og'iz bo'shlig'i shamollash kasalliklarida va tomoq og'riganda u bilan og'iz va tomoq chayiladi.

Jo'ka guli shamollash kasalliklarida ishlatiladigan terlatadigan va tomoq chayish uchun qo'llanadigan va boshqa yig'ma choylar tarkibiga kiradi

Zig'ir – bir yillik o'simlik. U turli maqsadlar (moy va tola olish, meditsinada dorivor mahsulot sifatida ishlatish) uchun o'stiriladi.

Tibbiyotda dorivor vosita sifatida zig'ir urug'i ishlatiladi. Abu Ali ibn Sino qovurilgan zig'ir urug'ini yo'talni ketkazish hamda ichburug'ni qoldirish, buyrak, qovuq va boshqa a'zolar kasalliklari, shish va chipqonga davo qilish uchun qo'llagan.

Xalq tabobati zig'ir urug'idan tayyorlangan qaynatma bilan yo'tal, angina, o'pka sili (qaynatma sut bilan birga iste'mol qilinadi) hamda me'da (gastrit, me'da va o'n ikki barmoq ichak yarasi), bo'yрак va boshqa ayrim kasalliklarga davo qilinadi.

Zig'ir urug'idan qaynatma tayyorlash uchun og'zi yopiladigan ilishga yarim stakan suv quyiladi, ustiga maydalangan urug'dan 2 choy qoshiq solib, bir oz qaynatiladi va 10 daqiqa tindirib qo'yiladi. So'ngra shishaga solib, 5 daqiqa chayqatiladi va dokada suziladi. Qaynatmadan kuniga 3-4 marta yarim stakandan ichiladi.

Tibbiyotda zig'ir urug'ining dorivor preparatlari nafas yo'llari va me'da ichak shilliq pardalari yallig'lanish kasalliklarida o'rab oluvchi va engil surgi dori sifatida qo'llaniladi.

Shilliq eritma tayyorlash uchun biror idishga 3 gr urug' solinadi, ustiga yarim stakan qaynab turgan suv solib, 15 daqiqa davomida chayqatiladi va dokada suziladi. Yuqorida ko'rsatilgan kasalliklarda shilliq eritmada kuniga 3-4 mahal yarim stakandan iste'mol qilinadi

Oddiy maymunjon

Xalq tabobatida quritilmagan va quritilgan meva damlamasi shamollash kasalliklarida terlatuvchi, isitma tushiruvchi, balg'am ko'chiruvchi dori sifatida hamda ishtaha ochish, ovqat hazmini yaxshilash, qon oqishini (meedadan, ichakdan, bachadondan) to'xtatish uchun qo'llaniladi.

Mevadan damlama tayyorlash uchun o'zi yopiladigan idishga 2 stakan qaynab turgan suv quyiladi, ustiga 2 osh qoshiqda quritilgan mevadan solib, 15-20 daqiqa damlab qo'yiladi. So'ngra damlama dokada suzib olinadi-da 1-2 soat ichida issiq holida hammasi ichiladi.

Ilmiy tibbiyotda quritilgan mevasidan tayyorlangan damlama turli shamollash kasalliklarida terlatuvchi hamda yengil siydik haydovchi vosita sifatida ishlatiladi. Oddiy maymunjonning quritilgan mevasi terlatuvchi yig'ma-choylar tarkibiga kiradi. Nafas yo'llarini surunkali yallig'lanishida bemorlarga ichiriladi. Agar bir hafta davomida ana shu choydan ichib yurilsa, balg'amning ko'chishi oson bo'ladi, odamning yuzi tiniqlashadi, bosh og'riqdan saqlaydi [5].

Murchli choy (Chay s chyorno'm pyertsem). Xalq tabobatida murchli choy shamollab yo'talganda, bronxitda, ko'krak og'riganda, terlatuvchi dori sifatida qo'llaniladi. Qora murch tana a'zolarini tozalovchi, qizituvchi xususiyatlarga ega. Yarim litrli choynakka kichkina qoshiqda oliy navli qora choy solinadi, ustiga 1,5 choy qoshig'ida tuyulgan murch yoki donalaridan 15 dona solib ustidan qaynoq suv quyiladi va 4-5 daqiqa sochiqqa o'rab damlanadi, so'ng bemor choyga o'xshatib ichavyeradi. Agar asal bilan murchni teng miqdorda aralashtirib qo'shib tanglayga surtilsa, tomoq og'rig'iga foyda qiladi va o'pkani tozalaydi. (Abu Ali Ibn Sino « Tib qonunlari» 2 jild 1956y. 500 bet).

Turp (Redka). Abu Ali ibn Sino turpni pishirilganini va sharbatini shamollab bronxit kasaliga chalingan bemorlarga tavsiya etgan. Turpni qaynatib pishirilgani shamollashga qarshi, balg'am ko'chiruvchi tomoq va o'pka kasalliklariga davo

sifatida ediriladi. Turp sharbati bronxit o'pka yallig'langanda ichiriladi. Turp sharbatini tayyorlash uchun qirg'ichda qirib uning sharbatidan 3 osh qoshiq olinadi, unga ikki osh qoshiq asal, bir osh qoshiq (40 foizli) spirt, bir osh qoshiq miqdorida osh tuzi qo'shilishi lozim bo'ladi. Kuniga uch mahal 1 osh qoshiqdan ovqatlanishdan oldin ichiladi. Yana: turpni mayda bo'laklarga bo'lib, qopqoqli idishlarga solinadi va ustidan shakar sepiladi va shuni duxovkada ikki soatga qizdiriladi, sovutib turp bo'lakchalari olib tashlanadi tagida qolgan suyuqlikni esa shishaga quyiladi. Kuniga ikki choy qoshiqdan uch-turt marotaba ovqat oldidan va kechasi uxlashdan oldin ichiladi. Bu muolajani qilib turilsa kishi aksirmaydi, yo'talmaydi va bronxit kasaliga davo qiladi ayniqsa bolalar uchun yaxshi shifo byeradi.

Tog'jambil (Timyan). O'rmalab o'suvchi, gullari pushti rangda, tog' yon bag'rlarida ko'p uchraydi. Abu Ali ibn Sino: Tog'jambilining qaynatmasini asalga qo'shib yalansa, ko'krak va o'pkani tozalaydi, balg'amni ko'chirishga yordam qiladi, qon tuflashni ham to'xtatadi deydi. Qaynatma tayyorlash uchun tog'jambilning yer ustki qismining maydalab quritilganidan 15 g olinadida 200 g suvda bir oz qaynatiladi, so'ng dokada suzib olinadi va 1 osh qoshiq asal bilan aralashtirib kuniga 4-5 mahal yalab turiladi.

Bolgariyalik bashoratchi Vanga: Bronxitni bolalarda davolash uchun.

Ko'ka (Mat-machexa) o'simligining quritib maydalangandan so'ng qo'lda bir siqimini olib ikki litr suvda qaynatib, issiqligida bolani shu qaynatma bilan cho'miltirishni buyurgan. Yana tuyulgan aspirinni toza cho'chqa moyida xamirga o'xshatib aralashma tayyorlanadi va shu aralashmadan 10 kun davomida bolaning ko'kragiga surtib turiladi. Yana boshqa usul 2 dona tuxumni cho'chqa moyida pishirib ozgina sovugach, tuz sepib yotish oldidan bolaning ko'kragiga malham sifatida qo'yiladi. Yana Vanganing aytishicha: bronxit boshlanganida ayniqsa bolalarda, ularga 1 choy qoshiqda kastor moyi ichirilsa yaxshi shifo byerar ekan.

Qora-andiz (Devyasil vo`sokiy). Tabobatda qoraandizning ildizi ishlatiladi. Abu Ali ibn Sino qora-andiz o'simlikning ildizpoyasidan tayyorlangan damlamani yoki

qaynatmani, nafas yo'llarining shamollashida, isitma tushiruvchi, balg'am ko'chiruvchi va o'pka sili kasalliklarini davolashda ishlatgan. O'simlikdan damlama yoki qaynatma tayyorlash uchun biror og'zi yopiladigan idishga bir stakan suv quyib, ustiga maydalangan o'simlikning ildizidan 20 g solinadi va bir oz qaynatib, 4 soat qo'yib qo'yiladi. So'ngra dokadan suzib, kuniga 3-4 mahal ovqatdan 20 daqiqa oldin bir osh qoshiqdan ichib turiladi. Ilmiy tibbiyotda qora-andiz o'simligining qaynatmasi balg'am ko'chiruvchi dori sifatida ishlatiladi, hamda yo'talni qoldiradi.

Piyoz (Luk repchato'y). Sentyabr oyining oxiridan boshlab bitta yoki tuxumday bo'lsa ikkita piyozni tozalab qirg'ichda yoki pichoqda katta-katta bir kosaga qirqiladi, so'ng darhol kosa atrofini o'rab o'rtasi ochiq qo'yiladi. Ana shu ochiq joyga burun bilan og'izni qo'yib 5 daqiqa burun bilan, 5 daqiqa og'iz bilan chuqur-chuqur nafas olish kerak.

Nafas olganda burun bilan olib og'iz bilan nafas chiqarish, og'iz bilan olganda burun bilan nafas chiqarish kerak. Piyo

z burundagi, bronxdagi yallig'lanishni sekin-sekin yo'qotadi, tez-tez shamollashning oldini oladi, o'sha zahotiyiq nafas olish bir muncha yaxshi bo'ladi. Bu muolajani kasallik og'ir bo'lsa birinchi 10 kunda uch mahal ovqatdan oldin, ikkinchi 10 kunlikda bir mahal kechqurun yotishdan oldin bajariladi. Ikkinchi oydan boshlab har kuni bir marotabadan shu usulni qo'llanib turilsa o'pkaning yuqori nafas qismlari, bronxlar yallig'lanishlari ketib yaxshi shifo beradi.

Vanga bronxitni quyidagicha davolashni tavsiya etadi: 40 bosh o'rtacha piyo

z olinib, ustidan piyozlar cho'kmaguncha qaynoq suv quyiladi, bir-ozdan so'ng ular ho'llangandan keyin olinib ustiga 0,5 litr Chakanda moyi(oblipexa) solinadi va eziladi. Ezilgan piyozlarni ovqatdan oldin bir osh qoshiqdan kuniga 2-3 mahal yeb turiladi.

Bilib qo'ygan yaxshi: Surunkali yo'talga qaynatilgan turp eyiladi [18].

Badg'am ko'chirish, qustirish xususiyati bor o'simliklar: arpabodyon, ipekakuana, oqqaldirmoq, bahorgi navro'zgul, chuchukmiya, afsonak, gulhayri, dorivor ukrop va boshqalardan iborat.

Arpabodiyon o'simligi tarkibida ko'p miqdorda efir moylari mavjud, yallig'lanishga qarshi, spazmolitik, balg'am ko'chiruvchi ta'sir ko'rsatadi. Arpabodyonning efir moylari bronx bezlari orqali chiqib, ularni ta'sirleydi, shilliq ajralishi yaxshilanadi, nafas yo'llari mikroflorasiga bakteritsid ta'sir ko'rsatadi. Arpabodyon efir moyi bronxlar orqali anetol modda ishlab chiqarib, nafasni reflektor yo'l orqali qo'zg'atadi, nafas yo'llari faolligini oshiradi, balg'amni suyultirib, ko'chishini osonlashtiradi. Arpabodiyon ayniqsa bolalar amaliyotida nafas a'zolarida kasalliklarida – bronxit, bronxopnevmoniya, laringit, traxeit, ko'kyo'tal kasalliklarida juda keng qo'llaniladi. Arpabodiyon damlamasi, moyi, novshadil tomchilari qo'llanadi.

Chuchukmiya ildizidagi glitsirizin traxeya, bronxlarning epiteliysi tukchalarini qo'zg'atib, yuqori nafas yo'llari shillig'ining sekretor faoliyatini oshiradi. Chuchukmiya flavonoid brikmalari bo'lgani tufayli silliq mushaklarga spazmolitik ta'sir ko'rsatadi. Ildizi yallig'lanishga qarshi yaxshi ta'sir etadi. Chuchukmiyadagi glitsirizindan glitsirizin kislota hosil bo'ladi, gliyirizin kislota kortikostyeroidlarga o'xshab ta'sir ko'rsatadi. O'simlikdan glitsiram degan modda ajratib olingan, bu modda yallig'lanishga qarshi ta'sir etadi; moddaning yallig'lanishga qarshi mexanizmida buyrak usti bezi ishtirok etadi. Glitsiram natriy va kaliy ionlarining o'zaro nisbatiga ta'sir ko'rsatadi, bu moddaning allyergiyaga qarshi ta'siri ham bor. O'simlik damlamasi, ekstrakti, sharbati, eliksiri yuqori nafas yo'llari kasalliklarida balg'am ko'chirish, yo'talni yumshatish, o'rab oluvchi sifatida qo'llaniladi.

Yuqori nafas yo'llari kasalliklarida bir necha o'simliklar birga yig'ma sifatida qo'llansa, bir- birining xususiyatiga yaxshi ta'sir etadi.

Masalan: Arpabodiyon mevasi 20,0

Gulhayri ildizi 40,0

Chuchukmiya ildizi 40,0

Damlama (1 osh qoshig'i 1 stakan qaynoq suvda) tayyorlanib, har 3 soatda yarim stakandan ichiladi.

Gulhayri ildizi	20,0
Chuchukmiya ildizi	20,0
Arpabodiyon mevasi	20,0
Mavrak bargi	20,0
Qarag'ay kurtagi	20,0

Damlama tayyorlanib j stakandan kuniga 3-4 marta ichiladi.

Gulhayri ildidizi – *radices althaeae*

O'simlik nomi. Dorvor gulhayri – *Althaea officinalis* .

Kimyoviy tarkibi. Ildiz tarkibida 11%gacha shilliq modda, 37% kraxmal, 2 %gacha L-asparagin , 4 % betain, 10,2% saxaroza va 1,7 % gacha moy pektin va boshqa birikmalar bo'ladi. Gulhayri shilliq moddalari pentozanlar, geksozanlar va uron kislotalar birikmalaridan tashkil topgan.

Ishlatilishi. Gulhayri ildizining preparatlari o'rab oluvchi, balg'am ko'chiruvchi hamda yallig'lanishga qarshi (ayniqsa bolalarning nafas yo'llari kasallanganda) dori sifatida ishlatiladi.

Dorvor preparatlari. Qaynatma , quruq ekstrakt, kukun (poroshok), sharbat. Kubik shaklida qir qilgan ildiz nafas olish yo'llari kasalliklarida ishlatiladigan turli yig'malar tarkibiga kiradi. Qaynatma ildizdan faqat sovuq suvda tayyorlanadi (mahsulotdan shilliq modda ajralib chiqadi, kraxmal suvda erimasligi sababli qaynatmaga o'tmaydi). Dorivor gulhayrining yer ustki qismidan ajratib olingan uglevodlar aralashmasidan "mukaltin" nomli dorivor preparat olinadi. "Mukaltin"preparatini balg'am ko'chiruvchi dori sifatida yuqori nafas yo'llari va o'pka yallig'lanishi kasalliklarida ishlatiladi.

Katta zubtutum bargi –*Folia plantaginis majoris*

O'simlik nomi. Katta zubtutum- *Plantago major*.

Kimyoviy tarkibi. Mahsulot tarkibida aukubin (rinantin) glikozidi, achchiq, shilliq va oshlovchi moddalar, flavonoidlar (apigenin, gomopplantagenin, lyuteolin va skutellyarein glyukozidlari va boshqalar), karotin, hamda askorbin, limon kislotalar, faktor T va vitamin K bo'ladi.

Ishlatilishi. Zubturm o'simligining dorivor preparatlari yallig'lanishga qarshi va balg'am ko'chiruvchi vosita (barg damlamasi) sifatida, meda-ichak kasalliklarini davolashda ishlatiladi. Dorivor preparatlari. Damlama, nastoyka, yangi yig'ilgan quritilmagan bargning konsyervatsiya qilingan shirasi, plantoglutsid preparati, barg briketi. Barg yo'talda beriladigan choylar – yig'malar tarkibiga kiradi. Tibbiyotda katta zupturn bilan bir qatorda o'rta hamda lantsetsimon zupturn o'simliklari ham ishlatiladi.

Oqqaldirmoq bargi – Folia farfarae

O'simlik nomi. Oqqaldirmoq (ko'ka) – Tussilago farfaga.

Kimyoviy tarkibi. Mahsulot tarkibida 2,63% gacha tussilagin va boshqa glikozidlar hamda gallat, olma va vino kislotalari, stearinlar, inulin, efir moyi, 70-251 mg. % vitamin C, 5,18 mg.% karotinoidlar, 0,25% flavonoidlar, alkaloidlar, saponinlar, 8,46- 9,61 % oshlovchi, 7- 8% shilliq va boshqa moddalar bo'ladi. Oqqaldirmoq o'simligining gul to'plami tarkibida stigmastearin va boshqa stearinlar, faradiol, flavonoidlar (0,36% rutin, 0,28% gipyerozid) hamda 172- 253 mg % S vitamin bo'ladi.

Ishlatilishi. Oqqaldirmoq o'simligining dorivor preparatlari yumshatuvchi, balg'am ko'chiruvchi va dezinfektsiya qiluvchi hamda yallig'lanishga qarshi ta'sirga ega. Shuning uchun ular bronxit, laringit va o'pka kasalliklarida balg'am ko'chiruvchi vosita sifatida ishlatiladi.

Dorivor preparatlar. Damlama, qaynatma. Bargi ko'krak kasalliklarida ishlatiladigan hamda tyer haydovchi choy – yig'malar tarkibiga kiradi.

Marmarak bargi- Folia salviae.

O'simlikning nomi. Dorivor marmarak (mavrak) – Salvia officinalis.

Kimyoviy tarkibi. O'simlikning barcha organlarida efir moyi bo'ladi. Barg tarkibida 0,5- 2,5% efir moyi , alkaloidlar , oshlovchi moddalar, flavonoidlar, ursol va oleanol kislotalar hamda boshqa birikmalar bor.

XI DF ga ko'ra mahsulot tarkibida efir moyining miqdori butun mahsulotda 1% , qirgilgan mahsulotda esa 0,8 % dan kam bo'lmasligi kerak. Efir moyi tarkibida 15% gacha sineol, tuyo'n, pinen, borneol, kamfora, sedren va boshqa birikmalar bo'ladi.

Ishlatilishi. Dorivor marmarak bargining prearatlari burishtiruvchi, dezinfektsiyalovchi va yuqori nafas yo'llari yallig'langanda yallig'lanishga qarshi ta'sir etuvchi dori sifatida, og'iz (stomatit, gingivit) va tomoqni chayqash uchun ishlatiladi.

Dorivor preparatlar. Damlama. Marmarak bargi tomoq, ko'krak , yuqori nafas yo'llari yallig'lanishi, me'dakasalliklarida va ketishiga qarshi ishlatiladigan yig'malar – choylar hamda bronxoletin preparti tarkibiga kiradi. Marmarak bargidan "Salvin" dorvor preparati olinadi. Uning suvdagi eritmasi yoki natriy xloridning izotonik eritmasidagi 0,1va 0,25% li eritmalari og'iz bo'shlig'idagi surunkali yallig'lanish kasalliklari (stomatit, gingivit, parodontoz), yiringli, tropik vasuyaklarning oqma yaralarini davolashda qo'llaniladi.

Sudralib o'suvchi tog'jambul

Yer ustki qismi- Herba serpylli

O'simlikning nomi. Sudralib o'suvchi tog'jambul- Thymus sepyllum.

Kimyoviy tarkibi. Mahsulot tarkibida 0,5- 1% efir moyi, oshlovchi va achchiq moddalar, elim, flavonoidlar hamda ursol va oleonol kislotalar bo'ladi. Efir moyi tarkibida timol, simol, borneol va boshqa birikmalar bor. Efir moyida fenollar miqdori 35% gacha , fenollarda timol miqdori 60% gacha bo'ladi.

Ishlatilishi. Sudralib o'suvchi tog'jambil preparatlari tibbiyotda bronxit va yuqori nafas yo'llari kasalliklarida balg'am ko'chiruvchi vosita, radikulit va nevrit kasalliklarida og'riq qoldiruvchi dori sifatida ishlatiladi.

Dorivor preparatlar. Damlama, suyuq ekstrakti pyertussin tarkibiga, shuningdek, mahsulot balg'am ko'chiruvchi yig'malar- choylar tarkibiga kiradi

Doktor kashel sirop

(doctor kashel syrup)

Tarkibi : muletxi (Glycyrrhiza glabra) suvli ekstrakti	48,00mg
Vasaka (Adhatodavasica)suvli ekstrakti	26,00mg
Tulasa (Ocimum sanctum)suvli ekstrakti	15,00mg
Suntxi (Zingiber officinale)suvli ekstrakti	4,80 mg
Pippali (Piper longum)suvli ekstrakti	9,80 mg
Pudina (Mentha piperatta)suvli ekstrakti	5,00 mg
Shirish (Albizzia lebeck)suvli ekstrakti	15,00 mg
Pushkarmul (Inula racemosa)suvli ekstrakti	15,00 mg
Xaridra (Cucuma longa)suvli ekstrakti	10,00 mg

Ta'rifi. Ushbu farmatsevtik preparat to'qqiz dorivor o'simliklarni suvli ekstraktlarini saqlaydi va balg'am ko'chiruvchi, mukalitik, bronxlarni kengaytiruvchi, hamda antiallyergik va shamollashga qarshi ta'sirga ega. U nafas yo'llarini infeksiyalarida, bronxitda, bronxial astmada va allergik respirator kasalliklarida yo'talni engillashtirish uchun ko'rsatilgan. U alkogol saqlamaydi va sedativ samara chaqirmaydi.

Qo'llanilishi. Doktor kashel siropi nafas yo'llarini infeksiyalarida, bronxitda, bronxial astmada va allyergik respirator kasalliklarida yo'tal va shamollash belgilarini engillashtirish uchun ko'rsatilgan.

Nojo'ya ta'siri. Tavsiya etilgan tyerapevtik dozalarda Doktor Kashel siropi nojo'ya ta'sirlar chaqirmaydi [19].

Chuchukmiya qiyomi (Sirupus Glycyrrhizae)

Tarkibi, X DF 456-modda.

Chuchukmiya ildizi quyuq ekstrakti - 4 g.

Qand qiyomi - 86 g.

Etil spirti - 10 g.

2 - jadval

Xom ashyo tavsifi

MH	Xom ashyo nomi	Miqdori, %	Xom ashyoga talab
X DF 261-modda	Chuchuk miya ildi-zini quyuq ekstrakti	Glitsirrizin k-tasi 14% kam bo'lmasligi kerak	DF bo'yicha
X DF 615-modda	Qand qiyomi	Qand- 64%	DF bo'yicha
DSt 5962-67	Etil spirti	96,2 %	DSt bo'yicha


Kerakli asbob-uskunalar va yordamchi materiallar

1. Chuchuk miya ildizini quyuq ekstrakti.
2. Chinni kosacha.
3. Qand qiyomi, etil spirti.
4. Suv hammomi.
5. Shisha tayoqcha.
6. Tibbiyot tarozi va toshlari.
7. Tayyor mahsulot solish uchun idish.

Ishni bajarish tartibi

Tartib olingan chinni kosachaga 17,2 g qand qiyomi va 0,8 g chuchuk miya ildizini quyuq ekstrakti solinib, suv xammomida bir xil massa hosil bo'lguncha shisha tayoqcha bilan aralashtiriladi. Massa sovugandan so'ng 2 g (2,24 ml) 90% li etil spirti qo'shib, aralashtiriladi. Tayyor mahsulotning sifati baholanib, jihozlanadi va qadoqlanadi.

3- jadval: Tayorlash jarayoni



Tayyor mahsulotning sifatini tekshirish

Tayyor mahsulotning tavsifi. Sariq - qo'ng'ir rangli, o'ziga xos hid va mazaga ega bo'lgan suyuqlik. Zichligi - 1,290-1,310.

Chinligi. Preparat suv bilan chayqatilganda bir soat davomida so'nmaydigan ko'pik hosil qilishi kerak (saponinlar).

Qadoqlash. Shisha idishlarda 15-20 kg dan chiqariladi.

Saqlanishi. Salqin va qorong'i joyda saqlanadi.

Ishlatilishi. Balg'am ko'chiruvchi va engil surgi dori vositasi sifatida miksturalarga qo'shib beriladi.

XULOSA

Biz “**Nafas yo’llarining yalliglanish kasalliklarida ishlatiladigan kimyoviy birikmalar**” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishimizni yozish davomida quyidagi xulosalarga keldik:

1. Mavzuni o’rganish davomida 20 dan ortiq adabiyotlarni to’pladik. Ularni tahlil qildik va internet ma’lumotlaridan keng foydalandik. Internet ma’lumotlarida ko’proq tabiiy dorivor moddalar va dorivor o’simliklar haqida ma’lumotlar berilgan.

2. Nafas yo’llarini yallig’lanish kasalliklarini davolashda ishlatiladigan dorivor moddalarni kimyoviy tarkibini o’rganish davomida juda ko’p inson salomatligi uchun zarur va zararli moddalarni tahlil qildik.

3. Dori moddalarni tarkibini tekshirish metodlari bilan tanishdik.

4. Mavzuni o’rganish davomida 15 dan ortiq ilmiy adabiyot va internet ma’lumotlaridan foydalangan holda 35 dan ortiq kimyoviy va 30 ga yaqin tabiiy vositalarni o’rgandik.

Adabiyotlar ro'yxati.

1. Karimov . “Barkamol avlod orzusi” T. “O’zbekiston” 2000, 83-bet.
2. E.Y.Qosimov, Sh.G.Muqminov, B.N.Nuritdinov. Ichki kasalliklar. (Propedevtikasi) T.: 1994 70-94 bet.
3. F.G’.Nazirov, A.G.Gadaev. Umumiy amaliyot shifokori uchun qo’llanma M.: EOTAR-Mediya. 2007. 55-592 bet.
4. M.F.Ziyaeva . Terapiya (ichki kasalliklar). T.: ILM-ZIYO. 2004. 12-56 bet.
5. O’.B.Sharopov, K.F.G’afforova, U.I.Shodmonov. Ichki kasalliklar.T.: Ibn Sino. 1994 5-8 bet.
6. N.M.Komolov. Ichki kasalliklar. T.: 1996. 42-45 bet.
7. Sayfiddinov Faxriddin o’g’li .Farmokologiya. T.: 1996. 230-231 bet.
8. S.S.Azizova. Farmokologiya. T.: Ibn Sino. 176-358 bet.
9. М.Д.Машковский. Лекаривценные средцва. М.: Медицина. 1985 . II том 219 ст.
10. М.Д.Машковский. Лекаривценные средцва. М.: Медицина. 1977. I-II том I. 107-192.II.80-233 ст.
11. M.Maxsumov, M.Malikov. Farmokologiya. T.: O’zbekiston .2006 259 bet.
12. G.A.Madrahimov. Farmatsevtik kimyo. T.: Zarqalam. 2005. 192-204 bet.
13. A.Yu.Ibodov. Farmatsevtik kimyo. I-qism Ibn Sino. 1996. 350-351 bet.
14. H.X.Xolmatov, O’.A.Ahmedov. Farmokoknoziya. I-qism. Cho’lpon. T.: 2008. 77-197 bet.
15. Enileev.X.X –o’simliklar nima bilan va qanday oziqlanadi.T.:O’zbekiston, 1964 87-bet
16. Beshikova Sh., Salimov L., O’simliklar mhsulotlari yetishtirish texnologiyasi va ekalogiya-T.:O’zbekiston, 1994 265-273- betlar
17. Ahmerov Q., Tursunxo’jayev ‘., Ximiya xalq xo’jaligida – T.: Mehnat, 1988 27-bet
18. Xo’jayev Sh.X., O’simliklar fiziologiyasi Toshkent:. Mehnat, 2004 49- bet

19. Qosimov A., Qo'chqarov K., Teshaboev C. Bioximiya T.: O'zbekiston 1985, 103-104 betlar
20. Satiqov I.K., Qo'chqarov Q., O'simlik hujayrasi. T.: O'qituvchi, 1978- 28-68-betlar
21. Генкелг' П.А. Физиология растений с основами микробиологии. Москва: 1965
22. www.jaxon.uz.
23. www.UZA.uz.
24. www.Ziyonet.uz.
25. uzedu.uz/apache/info_uzb/298/files/ma%60ruza1.
26. www.rtm.uz/files/download/149